

**O‘ZBEKISTON RERSPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 154.7.262.1**

**JABBOROV ELBEK ESHPO‘LATOVICH**

**IRODA INSON MA‘NAVIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

**mavzusida  
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

*5A 111601 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma‘naviyat  
asoslari)*

**Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ f.f.n N.O‘roqova**

**Qarshi –2016**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. MA'NAVIYAT TUZILMASI TO'G'RISIDA ZAMONAVIY QARASHLARDA IRODAGA MUNOSABAT</b>	
1.1. Iroda tushunchasining falsafa va psixologiya fanlarida talqin qilinishi.....	8
1.2. Ong, ma`naviyat va iroda nisbati.....	25
<b>I bob</b> bo'yicha xulosa.....	34
<b>II BOB. MA'NAVIYAT VA IRODA DIALEKTIKASI</b>	
2.1. Irodaning inson axloqi va yaratuvchanlik faoliyati bilan o'zaro aloqadorligi.....	36
2.2. Insonning ijtimoiy mo'ljallari, oliy maqsadlariga erishishda irodaning ahamiyati.....	49
<b>II bob</b> bo'yicha xulosa.....	59
<b>III BOB. IRODA VA MA'NAVIY YUKSALISH</b>	
3.1. Ma`naviy yuksalish omillari orasida irodaning tutgan o'rni.....	61
3.2. Irodaning inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishdagi ahamiyati.....	73
<b>III bob</b> bo'yicha xulosa.....	82
<b>XULOSA</b> .....	84
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	87

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshqa sohalar kabi ma'naviyat sohasiga ham katta e'tibor berildi. Chunki ma'naviyatni yuksaltirmasdan biz ko'zlagan maqsadlarimizga – demokratik huquqiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurish, barkamol avlodni tarbiyalashga erishish qiyin edi. Prezident Islom Karimov adolatli ta'kidlaganidek: “Ma'naviyat va iqtisod bir birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'li mana shu”<sup>1</sup>. Inson kamolotida esa ma'naviyat, erkin tafakkur va iroda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, “Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi”<sup>2</sup>.

Yuksak ma'naviyatli insongina o'z yurti haqida qayg'urishi, uning kelajakdagi istiqbollarini oldindan tasavvur etishi mumkin. Ma'naviyati yuksak xalqning kelajagi ham yuksak bo'lishi tabiiy, albatta.

Ma'naviyat sohasi bilan shug'illanuvchi maxsus fan yaratilmaganligi bois, mustaqilligimizdan so'ng O'zbekistonda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan jamiyat ma'naviy hayotini o'rganuvchi alohida yangi “Ma'naviyat asoslari” va boshqa fanlar yaratildi, ularni ta'lim tizimining barcha bosqichida o'qitish yo'lga qo'yildi. Prezidentimiz ma'naviyatni O'zbekistonning milliy tiklanishi va rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etishini, ongimizni, shuurimizni tazyiqlardan xalos etmasak o'z kuchimizga, buyuk kelajagimizga ishonch, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun qat'iy irodaga ega bo'lmasak, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, boqimandalik kabi illatlarni yo'qotmasak, tashabbus ko'rsatmasak, buyuk marralarga intilmasak biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olmasligimizni ta'kidladi.

Ma'naviyat tushunchasini olimlarimiz har tomonlama tahlil etib, uning islohotlar va jamiyat taraqqiyotidagi hamda komil inson tarbiyasidagi ahamiyatini, ijtimoiy vazifalarini, rivojlanish xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor qaratib, ko'plab maqolalar, risolalar, kitoblar yozdilar. Lekin ma'naviyatning ichki

<sup>1</sup> Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.. Asarlar, 3-jild. - T., "O'zbekiston", 1996. 35-bet

<sup>2</sup> O'sha asar, 34-bet

tuzilmasi (strukturasi), tizim sifatida tarkibiy qismlari oʻrtasidagi oʻzaro dialektik aloqalar, taʼsirlarni tahlil qilishga bagʻishlangan tadqiqotlar koʻp emas. Baʼzi masalalar yetarlicha oʻrganilmagan. Xususan, irodaning ijtimoiy ong va maʼnaviyatda tutgan oʻrni, uning eʼtiqod, axloq, siyosat bilan oʻzaro ziddiyatli aloqalari va taʼsiri shunday masalalardan biridir.

Faqat kuchli iroda sohibigina oldida turgan qiyinchiliklarni yengib, koʻzlagan maqsadiga erishishi mumkin. Iroda nafaqat insonning maqsadiga erishishiga, balki jamiyatning ham yuksalishiga yordam beradi. Prezidentimiz tabiri bilan aytganda: “Insonning maʼnaviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan boʻlamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam oʻziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham oʻz zimmasiga olishdan qoʻrqmaydi”<sup>1</sup>.

Filosof A.Erkayev toʻgʻri taʼkidlaganidek: “Iroda maʼnaviyatga barqarorlik, oʻzini muhofaza qila olish, rivojlanish, takomillashish, yaʼni yashovchanlik va taʼsirchanlik xususiyatlarini bagʻishlaydi”<sup>2</sup>.

Maʼnaviyat tufayli iroda vatanparvarlik mazmunini kasb etadi, soxta gʻoyalarga uchmaydi va gʻayriinsoniy maqsadlar yoʻliga adashib kirib ketmaydi<sup>3</sup>.

Iroda maʼnaviyatning tarkibiy qismi sifatida ilk bora oʻrganilmoqda. Iroda tushunchasiga falsafa va psixologiya fanlarida ham taʼrif berilgan, ammo bu taʼriflar biryoqlamalikdan xoli emas. Shuning uchun ham ishda iroda tushunchasi maʼnaviyat nuqtayi nazaridan koʻrib chiqilgan.

### **Yuqoridagilarga asoslangan holda, ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbliqi quyidagi jihat va holatlardan kelib chiqadi:**

**Birinchidan,** iroda maʼnaviyatning tarkibiy qismi sifatida alohida oʻrganilmagan. Falsafa tarixida irodaga nisbatan bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshi fikrlar, taʼlimotlar koʻp bildirilganligi, psixologlar tomonidan esa irodaga turlicha biryoqlama tariflar berilganligi iroda tushunchasini, avvalo ilmiy jihatdan yoritib berishni talab etmoqda;

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. - T., “Maʼnaviyat”, 2010. 123-bet

<sup>2</sup> Erkayev A. Milliy gʻoya va maʼnaviyat. - T., “Maʼnaviyat”, 2002. 72-bet

<sup>3</sup> Oʻsha asar, 73-bet

**Ikkinchidan,** ma`naviyat va iroda o`zaro bog`liqlikda shakllanishi, ya`ni ma`naviyatsiz iroda irratsionallik kasb etishi, irodasiz ma`naviyat esa kemtik, notugal va amaliy jihatdan zaif<sup>1</sup> ekanligi bois bu mavzu ustida hali ko`p izlanishlar olib borish kerakligini talab etadi;

**Uchinchidan,** iroda axloq bilan birikmasa, faqat yovuz maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Shu sababdan irodani axloq negizida shakllantirish lozim;

**To`rtinchidan,** mamlakatimiz yuksak taraqqiyot darajasiga ko`tarilayotganligi, fuqarolarimiz esa yurtimizda yaratilgan barcha shart-sharoitlar bilan ta`minlanganligiga qaramasdan ular o`rtasida boqamandalik, loqaydlik, befarqlik illatlarining ildiz otayotganligi hamda yoshlar o`rtasida o`z mehnati orqasidan pul topishdan ko`ra, irodasizlik qilib mumay pul topish uchun turli oqimlarga kirib ketayotganligi sababli ularning irodasini tarbiyalashga katta e`tibor qaratish zarur;

**Beshinchidan,** yosh avlodni milliy g`oya ruhida tarbiyalash, Vatan oldidagi burchini tushuntirish, mafkura poligonlariga qarshi ularda mafkuraviy immunitetni iroda orqali shakllantirish lozimligini davr talab etmoqda.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Irodaning tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, insonning erkin tanlashda va ma`lum maqsadlarga intilishida namoyon bo`lishi, yoshlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirish, milliy g`oya asosida tarbiyalashda, mamlakatimiz taraqqiyotidagi o`zgarishlar, muvaffaqiyatlar va muommolarni ijobiy hal etishda, fuqarolarimiz o`rtasidagi boqamandalik, loqaydlik, befarqliklarni bartaraf etishdagi ahamiyati tadqiqotning obektini tashkil qiladi.

Individual va ma`naviy yuksalish jarayonida shaxs va jamiyat irodasining o`zgarishini o`rganish tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqot maqsad va vazifalari.** "Iroda inson ma`naviyatining tarkibiy qismi sifatida" mavzusini magistrlik dissertatsiyasi uchun olishdan asosiy maqsad:

– falsafa va psixologiya fanlarida irodaning tushuncha sifatida yoritilishi va mazmun-mohiyatini nechog`lik ochib berilganligini ilmiy tahlil etish;

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Milliy g`oya va ma`naviyat. - T., "Ma`naviyat", 2002. 73-bet

– ma`naviyat va iroda dialektikasini o`rganish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib tadqiqot oldiga quyidagi **vazifalar** qo`yildi:

1. “Iroda” tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning falsafa va psixologiya fanlaridagi talqinini tahlil etish, yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklarni ko`rsatish;

2. Ong, ma`naviyat va irodaning bir-biriga ta`sirini aniqlash;

3. Irodaning inson axloqi va yaratuvchanlik faoliyati bilan o`zaro aloqadorligini ochib berish;

4. Insonning ijtimoiy mo`ljallari, oliy maqsadlariga erishishda irodaning o`rnini ko`rsatib, taklif va tavsiyalar berish;

5. Irodaning inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishdagi ahamiyatini o`rganish va tegishli xulosa va takliflar bildirish.

**Ilmiy yangiligi.** Mazkur tadqiqot respublikamizda birinchi marta amalga oshirilmoqda. Unda irodani ma`naviyatning tarkibiy qismi sifatidagi mazmun-mohiyatini ochib berishga hamda ma`naviyat va irodaning o`zaro aloqadorlik dialektikasini asoslab berishga harakat qilingan. Falsafa va psixologiya fanlarida irodaga berilgan ta`rifning mazmun-mohiyati taqqoslash asosida tekshirib ko`rilgan va yangi xulosalar kiritilgan. Iroda tushunchasini ilmiy jihatdan yoritib berishga harakat qilingan.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Tadqiqotning asosiy masalalari uning oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

**1-faraz.** Iroda tushunchasining mazmun-mohiyati to`liq, yetarli darajada ochib berilmagan. Falsafa va psixologiya fanlarida iroda tushunchasi fan nuqtayi nazaridan asoslangan, ilmiy jihatdan asoslanmagan.

**2-faraz.** Iroda to`g`risidagi ma`lumotlarni jamlab yagona tizimga keltirish lozim.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar tahlili.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov iroda, uning inson va jamiyat ma`naviyatini yuksaltirishdagi o`rni, irodaning mazmun-mohiyati haqida o`z asarlarida, birinchi galda “Yuksak ma`naviyat – yangilmas kuch” asarida yoritib berdi. Hozirgi kunda

irodaga oid masalalar turli yondashuvlar asosida har tomonlama o'rganilmoqda. Irodaning tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, inson va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida P.I.Ivanov, M.E.Zufarova, E.G'.G'oziyev, A.Erkayev, N.Boymurodov va boshqa filosof va psixolog olimlar tomonidan yaratilgan asarlarda turli xildagi fikr va xulosalar bildirilgan<sup>1</sup>. Ayni paytda "Iroda" tushunchasini inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatidagi mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab olishda olim A.Erkayevning iroda to'g'risidagi qarashlari<sup>2</sup> muhim ahamiyatga molik.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Dissertatsiyaning ilmiy metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari tashkil etadi. Mavzuni yoritishda respublikamiz olimlarining nazariy, ilmiy-uslubiy asarlari, maqolalaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan: tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, obyektivlik, vorisiylik va yangilanish, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa dialektik usullar.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur ish:

Birinchiidan, iroda tushunchasining turli talqinlari, ta'riflari, ularning o'xshash va farq qiladigan jihatlarini, irodani o'rganishga nisbatan mavjud turli yo'nalishlarni, ilmiy metodologik pozitsiyalarni aniqlashga yordam beradi;

Ikkinchiidan, ma'naviyat va iroda tushunchalarini to'laroq anglash, ularning o'zaro aloqalarini aniqroq tasavvur etish imkonini beradi;

Uchinchiidan, ish materiallaridan va xulosalaridan ta'lim bosqichlarida ma'naviyat va irodani o'rganishda, ma'naviy tarbiya jarayonida foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Mazkur ish kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 90 betni tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy" nashriyoti, 2008; G'oziyev E.G'. Psixologiya. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2012; Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. T.: "Ma'naviyat", 2002; Boymurodov N. Amaliy psixologiya. T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2008.

<sup>2</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 67-80-betlar.

## **I BOB. MA`NAVIYAT TUZILMASI TO`G`RISIDA ZAMONAVIY QARASHLARDA IRODAGA MUNOSABAT**

### **1.1. Iroda tushunchasining falsafa va psixologiya fanlarida talqin qilinishi**

Qadimgi antik davrda inson ongi va ma'naviyati uch qismga bo'lingan: aql (tafakkur), iroda va hissiy kechinmalar. Insonning ongi insoniy tuyg'ulardan (uyat, vijdon, or-nomus, mehr-shavqat, qahr-g'azab, zavq-shavq) boshlanadi. Tuyg'ular inson ko'ngliga ta'sir ko'rsatish jarayonida unga nafaqat kayfiyat, balki fikr ham uyg'otadi. Inson o'z tuyg'usini anglash uchun ma'lum bir tushunchalarga qiyoslaydi.

Insonning hissiy dunyosi asta-sekin aql dunyosiga ham aylana boshlaydi. Insonning aql dunyosi tushunchalardan, g'oyalardan boshlanadi va insonning didiga, qarashlariga ta'sir ko'rsatadi

Inson yashashi va hayot kechirishi uchun ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat esa iroda vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham antik davr olimlari iroda tushunchasini faoliyat sifatida talqin qiladilar.

Olimlar ma'naviyatning tuzulmasi haqida so'z yuritganda uni insonning ichki ruhiy va aqliy intellektual dunyosi ekanligi bilan bir qatorda yaratuvchilik va ijodkorlik qobiliyatini ham alohida ajratib ko'rsatadi. Insonning xulq-atvori, mehnati, yaratuvchiligi, ijodkorligi – bular hammasi uning irodasini yuzaga chiqishi bilan bog'liq. Iroda insonning amalga oshirajak ishlarini yuzaga chiqishida unga yordam beruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafa tarixida irodaga nisbatan bir-birini inkor qiluvchi qarama-qarshi yondashuvlar, fikrlar va xulosalar ko'p bildirilgan. Ayniqsa iroda erkinligi to'g'risida. Iroda Avreliy Avgustin falsafasida muhim o'rin egallaydi. Uning falsafasida ma'naviy hayotning asosi aql emas, iroda degan qarash yotadi. Bunda Avgustin shunga tayanadiki, har bir narsaning mohiyati uning passivligida emas faolligidadir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, insonning mohiyatini passiv xarakterdagi aql emas, balki harakat, faol iroda belgilaydi. A.Avgustin falsafasi



insonning intellektual, ratsional konsepsiyasini (tafakkur irodadan yuqori turadi) emas, balki valyuntaristik konsepsiyasini (iroda tafakkurdan yuqori turadi) ilgari suradi. Valyuntaristik konsepsiyaga muvofiq Avgustin his-tuyg`ular hal qiluvchi o`rin tutadi deb uqtiradi. Uning fikricha, aslida ko`pgina tuyg`ular etik ahamiyatga ega bo`ladi va insonning hayotida ko`pgina intellektuallar o`ylaganidan ko`proq ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Dastlab Avgustin inson to`liq iroda erkinligiga ega deb hisoblaydi. Insonning harakatlari fundamental tarzda uning o`z irodasiga bog`liq bo`ladi. Odamlar xudoni izlashga intilishlari va uning so`ziga quloq solishlari ham, Xudodan ixtiyoriy ravishda qaytishlari, ya`ni gunoh qilishlari ham mumkin. Faqat erkin tanlov holatidagina gunoh haqida gapirish mumkin bo`ladi. Yovuzlik, shunday qilib, insonning erkin irodasiga, uning noto`g`ri qo`llanishiga borib taqaladi<sup>2</sup>.

”Iroda falsafasining otasi” deya nom qozongan nemis faylasufi Artur Shopenhauer (1788-1860) va uning izdoshlari irodani borliqning, butun olam jarayonining hamda inson faoliyatining birlamchi asosi, deb hisoblaganlar. Faylasuf fikricha, borliqning asosida iroda turadi. Uningcha iroda yagona ichki manbadir. U har bir ongning bevosita o`zidan kelib chiqadi. Iroda tushunchasi ana shu ongdan kelib chiqqan holda mohiyat sifatida butun dunyoga tarqaladi. Inson va olam mohiyati ham irodaga bog`liq.

Shopenhauer dunyoni ikkiga ajratish kerakligini ta`kidlaydi, ya`ni dunyo o`zida, mening hissiyotlarimga bog`liq bo`lmagan va mening tasavvurimda bo`ladigan hodisalar dunyosi<sup>3</sup>. Uning fikricha, bizning bilish faoliyatimiz dunyoning o`ziga qaratilmagan, balki bu dunyo hodisalariga qaratilgandir.

Shopenhauerning irodaga oid eng ulkan asari “Olam iroda va tasavvur sifatida” (1818) deb nomlanadi. Olimning iroda to`g`risidagi mulohazalari mana shu ulkan asarda jamlangan.

Olim fikricha, bilish jarayonida uning obykti (olam, voqelik) va subykti (inson) bir fursatda o`zaro birlashadi, ular o`rtasida muayyan nisbatdagi bus-

---

<sup>1</sup> Gunnar Skirbekk Nils Gile. Falsafa tarixi. T.:”Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002. 191-bet

<sup>2</sup> O`sha joyda

<sup>3</sup> Nazarov Q. G`arb falsafasi. T.: ”Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 511-bet

butunlik yuzaga keladi. Mazkur birlashish natijasida inson olamni u yoki bu darajada anglaydi. Uning ongida “tasavvur” sifatida olam hosil bo‘ladi. Anglanmagan, o‘z holicha olingan olam ko‘r, aniq asosi yo‘q “yashashga intilish irodasi”dir. Olam o‘z maqsad-muddaosi bo‘lgan hodisalarning cheksiz adadlariga maydalanadi. Bunday holni u obyektivlashish (obyektivatsiya) deb ataydi. Obyektivlashish deganda, mutafakkir voqelikning barcha alohida unsuri, bo‘lagi, parchasining o‘ziga xos mustaqil maqsad-muddaosi, manfaati borligini, u bizning ongimizga bog‘liq emasligini nazarda tutadi. Har bir obyektivatsiya mutlaq hukmronlikka intiladi. Ushbu intilish “barchaning barchaga qarshi urushi”ni keltirib chiqaradi<sup>1</sup>.

Inson – iroda obyektivatsiyalashuvining oliy pog‘onasi bo‘lib, aql yordamida olamni bilish qobiliyatiga ega. Inson o‘zini to‘liq yashashga intilish irodasi bilan birgalikda anglaydi. Shu bois uning nazarida boshqa individlar mavjudligi o‘z shaxsining bor-yo‘qligiga bog‘liq: “men bor olam bor, men yo‘q – olam yo‘q”, ya’ni olamni men his qilsam, tasavvur etsamgina u men uchun bor, his qilmasam, tasavvur eta olmasam, men uchun u yo‘qoladi yoki mendan olam boshlanadi, men bilan tugaydi. Shopenhauer fikricha, bunday tasavvur insonni haddan tashqari xudbin shaxsga aylantiradi. Davlat (ijtimoiy tashkilot) xudbinlikni yo‘q qilolmaydi. Chunki davlat o‘zaro muvozanatga keltirilgan xususiy irodalar tizimidir. Faqat san’at va axloqdagina xudbinlik bosimi, qistovlari yengib o‘tiladi. Gegel va tasavvuf mutafakkirlarining qarashlari to‘g‘risida gapirganda, odatda, ular Platonning abadiy g‘oyalar va Plotinning emanatsiya nazariyasiga borib taqalishi ta’kidlanadi. Faqat Gegelda emanatsiya manbai – bu Mutlaq g‘oya, Mutlaq ruh, tasavvufda – Oллоh. Shopenhauerda esa iroda. Olam cheksiz maydalangan, obyektivatsiyalashgan irodadir. Shopenhauer uchun iroda, shunday qilib, olamni tashkil etuvchi, hamda yaratuvchi, harakatlantiruvchi, o‘zgartiruvchi, yangilovchi va boshqaruvchi kuchdir<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Философский энциклопедический словарь. - М., 1983. - С.783.

<sup>2</sup> Erkayev A. Ma’naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 67-68-betlar

Shuningdek, u biluvchi ong dunyoni maxsus kategoriyalar, tushunchalar orqali qabul qiladi va bizning tasavvurimizni tartibga soladi, deydi va shu asosda u o'zining "Dunyo bu mening tasavvurimdir", degan g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Lekin bundan Shopenhauer ruhiy olamdan boshqa olamni tan olmaydi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak<sup>1</sup>.

Zero, bilish jarayonida tug'ilgan dunyo, Shopenhauer fikricha, haqiqiy dunyodan farq qiladi. Shuning uchun ham birinchi hodisa, tasavvur sifatida, ikkinchisini undan ajratilgan, reallik dunyosi, iroda dunyosi, deb oladi. Birinchisida sababiyat hukmronlik qiladi, makon va zamonda mavjud bo'lgan hamma narsa unga bo'sundirilgan. Ikkinchisi makon va zamondan tashqarida. U hech qanday chegara bilan cheklanmagan, shakllanmagan, bepoyondir. Shopenhauer fikricha, dunyo iroda orqali harakat qiladi va unda uchraydigan to'siqlar bunga begonadir.

"Dunyo bu mening tasavvurimdir" - xuddi shu formula orqali Shopenhauer o'zining asosiy asarini boshlaydi va bu bilan u hind falsafasini, Leybnis, Berkli, Yum, Kant falsafiy ta'limotlarining mohiyatini tiklaydi. Hodisalar dunyosi, Shopenhauer fikricha, bu "mening g'oyalarim", "mening aqliy tuzilishim" mahsulidir. Agarda boshqacha tuzilganida nima bo'lar edi? Dunyo o'zgarardi, menga butunlay boshqacha ko'rinardi, boshqa hodisalarda namoyon bo'lardi. Shuning uchun ham dunyo uni qabul qiluvchi subyektga bog'liqdir, masalan, ko'z ranglarni bir-biridan farqlaydi, quloq tovushlarni tinglaydi, qo'l predmetlar ustini silab ko'radi. Biroq bularning hammasini biz tasavvur qilamiz, xolos<sup>2</sup>.

Har bir inson o'zining sezgi a'zolari orqali dunyoni anglab olishga harakat qiladi va shu asosda unda dunyo to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Dunyo to'g'risidagi tasavvur insonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Bu tasavvur uni qabul qiluvchi shaxsga bog'liq. Ya'ni dunyodagi barcha insonlar nafaqat o'zining tashqi qiyofasi, balki ichki olami, fel-atvori, axloq-odobi bilan bir-biridan farq qiladi. Kimdir vaqt o'tgani sayin dunyo o'zgarib boradi, bu o'zgarishlarga insonning

---

<sup>1</sup> Nazarov Q. G'arb falsafasi. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 511-bet

<sup>2</sup> O'sha joyda 512-bet

hech qanaqangi aloqasi yo`q deb faraz qilsa, yana kimdir dunyo o`zgarmaydi, aksincha uni harakatlantiruvchisi bo`lmish insonlarning o`zlari o`zgarib boradi degan farazlarni ilgari surishadi.

Shopenhauer fikricha, iroda obyektiv reallikdir. Dunyoda tasavvur sifatida sababiyat hukmronlik qiladi. Bir hodisa boshqa bir hodisa natijasida kelib chiqadi. Dunyoda yuz berayotgan barcha hodisalar o`z-o`zidan yuzaga kelmaydi. Bu hodisalarning tagida qandaydir sabab yashiringan. Sababning hodisaga aylanishida iroda yetakchi rol o`ynaydi.

Ma`naviyatshunos olimlarimizdan biri A.Erkayevning ta`kidlashicha: "Irodaga barqarorlik, sobitlik bilan bir qatorda ma'lum darajada eklektiklik (qorishiqlik), relyativlik (nisbiylik) xos. Unda turli qarama-qarshi jihatlar aralashib ketgan. Iroda determinizm (sabab-oqibat qonuniyati)dan tashqaridagi hodisa emas. U erkin tanlashdir, ammo ijtimoiy taqozo etilgan erkin tanlashdir. Insonning qabul qilayotgan qarori, tanlashi injiqlikdan emas, shuni xohlayman – tamom-vassalom, degan munosabatdan emas, balki maqsadga erishishning turli variantlaridan o`ziga ma`qulini, jamiyatda keskin e`tiroz uyg`otmaydigan, boshqalar bilan ortiqcha ziddiyatlar tug`dirmaydigan variantni izlashdan kelib chiqadi. To`g`ri, maqsadga erishish yo`lidagi xulq-atvorda, xatti-harakatning har bir unsurida doim ham sababiy bog`liqlik – determinizm aniq ko`zga tashlanavermaydi. Ba`zan kishining xatti-harakati nomantiqiy va tasodifdek tuyuladi. Chunki u insonning ongi ostiga taalluqli, oqilona tushuntirish qiyin yoki mumkin bo`lmagan ruhiy holati, ijtimoiy mayllari yoki his-hayajonlari, junbushga kelgan tuyg`ulari ta`sirida sodir bo`ladi.

Uning bunday xulq-atvori aslida voqea ishtirokchilari tomonidan sodir etilgan haqiqiy sababga ega emas, balki his-hayajon va ong ostida to`planib qolgan norozilik, alam va qahr-g`azabning yuzaga portlab chiqishi oqibatidir. Ongostida to`planib qolgan salbiy his-hayajon, agar turli yo`llar bilan tashqariga chiqib ketmasa, inson ulardan xalos bo`lib olmasa, asab kasalligiga duchor bo`lishi mumkin. Z.Freyd hattoki tush ko`rishni ana shunday salbiy his-tuyg`ulardan xalos bo`lish yo`li deb hisoblaydi. Sababsiz kechadigan jarayon,

sababiyat yoʻqligi indeterminizm deyiladi. Ammo chuqurroq tahlil etilsa, “sabab” bor, faqat u ijtimoiy mazmundagi emas, balki psixologik mazmundagi sababdir<sup>1</sup>.

Inson hayot faoliyati davomida nimagadur ehtiyoj sezadi va bu ehtiyojni qondirish uchun oldindan oʻylangan maqsad asosida harakat qiladi. Shuning uchun ham iroda insonning oʻz oldiga ongli maqsad qoʻyishi va bu maqsadga erishish yoʻllari, vositalari, usullarini erkin tanlay olish qobiliyatidir. Insonning qiyinchilikka duch kelganida va bu qiyinchilikdan chiqib ketishning ikki yoʻldan birini tanlashda, oldida turgan dolzarb muammodan chiqib ketishning ichki va tashqi imkoniyatini izlab topishda iroda namoyon boʻladi.

A.Shopenhauer iroda aqlga bogʻliq emas. Iroda – bu kuch-qudratdir degan fikrni ilgari suradi. Toʻgʻri, inson jahli chiqqanida, turli stres holatlarda, koʻpchilik manfaati uchun ozchilik manfaati qurbon qilinishida iroda aqldan ustun keladi. Lekin hamisha ham iroda aqlga bogʻliq boʻlmagan holda yuzaga chiqadi degan qarash paydo boʻlmasligi kerak. Chunki inson aqli yordamida maqsadga erishish uchun oʻz hissiyatini irodaga boʻysundiradi. Tasavvur qiling, iroda aqldan tashqarida faoliyat yuritisa, u holda iroda qanday maqsadlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham irodada ratsionallik va irratsionallik qoʻshilib ketgan.

Irodadagi irratsional va indeterministik jihatlarni ortiqcha baholab yubormaslik kerak. Alohida olingan shaxs xatti-harakatida psixologik-emotional jihat baʼzan ustun kelib, harakatning oʻzi irratsional va indeterministik mazmun kasb etsa-da, jamiyat miqyosida iroda axloq va huquq vositasida ancha izchil ratsionalistik va deterministik talqinga ega boʻladi va oʻziga xos tarzda moddiylashadi.

Faylasuf fikricha, insonning xarakteri tugʻma boʻlib, unga ezgulik va yovuzlik ham tugʻma tarzda berilgan. Bu yerda u fransuz faylasufi Dekartning “Tugʻma gʻoyalar” haqidagi qarashlariga qoʻshilgan holda, undan farqli oʻlaroq, insonni tashqi muhitning mahsuli ekanligini inkor etadi. U iroda tabiatidagi qarama-qarshiliklar kurashi qonunini tan oladi. Iroda – jarayon, u doimo rivojlanishda. Ana shu kuch rivojlanishni sodir qiladi. Yuqori bosqichdagi iroda quyi tabaqadagi

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Maʼnaviyat va iroda // QarDU xabarlarini ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 69-bet

iroda bilan kurashda bo`ladi. Masalan, harbiy bo`linma sarkardasining o`zidan yuqori turuvchi harbiy bo`linma boshlig`iga bo`ysunishi. Qarama-qarshiliklar kurashi qonuni hamma narsada bor. Pastki bosqichdagi kurash ko`r-ko`rona sodir bo`ladi.

Shuning uchun ham ma`naviyatshunos olim A.Erkayev shaxs irodasini avtoritar, qaram hamda demokratik, liberal irodaga bo`ladi. Shundan avtoritar, qaram iroda yuqorida nazarda tutilgan Shopenhauerning fikrlarini oydinlashtiradi. A.Erkayev avtoritar, qaram irodaga quyidagicha ta`rif beradi: “Avtoritar iroda ikki yo`nalishda tahlil etilishi lozim. Birinchidan, avtoritar shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy va siyosiy faoliyati, o`z mas`uliyatini tushunish darajasi sifatida. Ikkinchidan, ijrochining avtoritar shaxs qarorlarini e`tiqod bilan bajaruvchi, unga ixtiyoriy bo`ysunuvchi qaram shaxsning irodasi sifatida. Qaram shaxslar har doim ham bo`sh-bayov kishilar bo`lmagan. Ular orasida qa`tiyatli, tashkilotchilik qobiliyatlari va aql-zakovati kuchli kishilar ko`p uchraydi. Masalan, Stalin va Gitlerning yaqin safdoshlari shunday kishilar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, oddiy avom xalq dohiy va uning safdoshlari fikrini va qarashlarini notanqidiy, to`g`ri va haqqoniy deb qabul qilishda, “amri podsho vojib”, yoki “teppanga keltirib tayoqni qo`yib, sening boshlig`ing desalar, tayoqqa bo`ysungin” kabi naqlar avtoritar irodaning avom ongida va xulqida yuzaga chiqishiga misoldir.

Avtoritarlik o`z qarorini, fikrini boshqalarnikidan ustun qo`yib, boshqalar fikri va xohishi bilan, ba`zan hatto obyektiv vaziyat bilan hisoblashmaslik, o`z qarorini boshqalarga majburlab o`tkazishidir. Bunday avtoritar irodali shaxslar volyuntaristlar deyiladi. Ular hamma jamiyatlarda uchraydi, ammo nodemokratik va totalitar jamiyatlarda ko`proq yetishib chiqadi. Avtoritar iroda ma`lum darajada insonning tabiiy moyilliklari ta`sirida shakllanadi. Ammo u asosan tarbiyaning va jamiyatdagi ba`zi bir shart-sharoitlarning mahsulidir. Qiyin, og`ir vaziyatlarda o`zini yo`qotib qo`ymasdan, boshqalarni ortidan ergashtira oladigan, bunday vaqtlarda odamlarga foydasi tegib, katta obro` orttirgan, jamoaning, safdoshlarining yetakchisiga aylangan kishilar asta-sekin avtoritar shaxslarga aylanishi mumkin. Bunda ularning mardligi, matonati, aql-zakovati,

tashkilotchiligi, qat'iyati katta rol o'ynaydi. Odamlar unga ixtiyoriy ravishda bo'ysunadi, fikri va takliflariga, talablariga e'tiroz bildirmaydi. Ushbu holat qoidaga aylanib, odamlar bunday shaxsning noto'g'ri fikri va talablariga ham qarshilik qilmay qo'yib, qo'llab-quvvatlay boshlasa, bunday shaxsning avtoritar irodasi jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'lib qoladi.

Adolatsiz, obro'li shaxsning xohish-istagi, ko'rsatmasi, iltimosi qonundan ustun qo'yiladigan jamiyatda shakllangan avtoritar iroda o'ta ziddiyatlidir. Bir tomondan, u o'zidan yuqoriroq mansabdagi yoki martabadagi shaxs irodasiga qaram, unga to'liq bo'ysunadi, e'tiroz bildira olmaydi. Ikkinchi tomondan, u o'zidan quyi turadigan shaxs irodasi bilan, zarur topsa, mutloqo hisoblashmaydi. Avtoritar iroda egasi qat'iyatli, aql-zakovati yuksak, mohir tashkilotchi, g'ururi, or-nomusi, adolat tuyg'usi kuchli shaxs bo'lishi mumkin. Lekin u jamiyatdagi mavjud qoidalarni biryoqlama qabul qiladi, adolatni biryoqlama tushunadi, ular asosida yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. U umumiy yoki o'z shaxsiy manfaati yo'lida boshqa kishilar manfaati bilan hisoblashmasligi, biryoqlama tushunadigan adolat uchun kimgadir adolatsizlik qilishi hech gap emas. Shu sababdan avtoritar iroda, o'z mohiyatiga ko'ra, demokratik, liberal, erkin bo'lolmaydi. U jamiyatdagi mavjud notenglik ziddiyatlarini, qoidalarini, munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ular ta'sirida shakllanadi.

Avtoritar iroda yuksak samara bermaydi. Jamiyat rivojlanishiga dastlabki yillarda, ayniqsa inqiroz va parokandalik hukm surayotgan paytda intizomni tiklashi, jinoyatchilikni kamaytirishi, ijtimoiy ishlab chiqarish va savdo-sotiqni tartibga keltirishi bilan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq jamiyat samarali va uzluksiz yuksalishi uchun tartib-intizom va qattiqqo'llik kamlik qiladi. Jamiyat rivojlanishi odamlarning tashabbuskor, ijodkor bo'lishini, yangiliklarga intilishini, xato qilishdan cho'chimasdan, doimiy izlanishlarda bo'lishini talab qiladi. Avtoritar boshqaruv hukm surayotgan mamlakatda odamlar mustaqil tashabbus ko'rsatishdan, biror narsani o'zgartib, yangilik qilishdan, ayniqsa xato

qilib qo'yishdan cho'chiydi. Asta-sekin loqaydlik, befarqlik kuchayadi. Odamlar faqat ijrochiga aylanib, ijodkorlikni unuta boshlaydi"<sup>1</sup>.

Inson zoti borki tug'ilganidan to umrining oxirigacha hayot uchun kurashib yashaydi. Bu kurashuv davrida nimalargadur erishadi, nimalarnidur boy beradi. Mustahkam iroda sohibigina o'z oldiga oliy maqsadlar qo'yib unga erishadi. Bunday insonlarda mas'uliyat hissi yuqori bo'lganligi bois o'z shaxsiy ishidan ko'ra jamoa ishini ustun qo'yib har bir ishda tashabbuskor, tashkilotchi bo'ladi. Mard, jasur, qo'rqmas bo'lganligi bois oldida turgan qiyinchiliklarni tezda yengib o'tadi. Tafakkur qilish, ikkilanish, sabrsizlik va qo'rquv irodani zaiflashtiradi.

Shopenhauer iroda to'g'risidagi fikrlarini davom ettirib, irodani musiqa san'atining o'z mohiyatini insonlarning qalb dunyosiga singdirishda va ta'sirini ko'rsatishdagi ahamiyati beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha: "Agar san'atning boshqa sohalari irodani qisman yoki bilvosita bilsa, musiqa esa irodani bevosita, to'liqligicha, xuddi o'zidagidek biladi... Shuning uchun ham musiqaning ta'siri juda kuchli va chuqurki, boshqa san'at turlari bu darajaga yeta olmaydi. Boshqa san'at sohalari g'oyalar haqida gapirsa, musiqa esa mohiyat haqida so'zlaydi"<sup>2</sup>. Musiqa hissiyotlar, ehtiroslar tilida gapiradi. U tovushlar orqali borliqning mohiyatini ochib beradi. Musiqaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning tili tovushlardan iborat. Tovushlar – bizning dastlabki, bevosita hislarimizni, kechinmalarimiz, xo'rsinish, og'riq, kulgi, yig'i, qo'rquv vahimasi yoki shodonlik, xurramlik va hokazolarni aks ettiradi. Tovushlarda nafaqat inson, balki hayvonot olami ham o'z ehtiroslarini namoyon qiladi. Tovushning imkoniyatlari cheksiz, chegarasizdir. Shunday qilib, san'at Shopenhauer uchun dunyoni iroda sifatida anglashga yordam beradi. Hayotning o'zi iroda, borliq bu doimiy iztirobdir. Lekin uni san'at orqali qayta tushunish, ko'rib chiqish, anglash butunlay boshqa ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dunyoni san'at orqali chuqur anglash insonga quvonch bag'ishlaydi.

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 77-78-betlar.

<sup>2</sup> Nazarov Q. G'arb falsafasi. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 516-bet.



Faylasuf inson hayoti davomida azob ham chekib turishi lozim deb hisoblaydi. Chunki hayotning bir maromda qiyinchiliklarsiz o'tishi insonni zeriktirib qo'yadi. Inson faoliyati davomida azob-uqubatlarni boshidan kechirsa hayotning qadriga yetadi, haqiqiy baxtga erishmoq uchun o'zining bor kuch va imkoniyatini ishga soladi. Bu jarayonda inson nafaqat o'tmishidagi xatolarini tushunib yetadi, balki o'z kelajagi uchun ham poydevor yaratadi.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Shopenhauer qarashlari mashhur bo'lib ketdi. Shopenhauer falsafasi ta'sirini sezib, unga ijobiy munosabatda bo'lganlar orasida Lev Tolstoydek daholar bor. Ziyolilar, olimlar, adiblar orasida faylasufning izdoshlari paydo bo'ldi. Qizig'i shundaki, ularning ayrimlari e'tiqodiy masalalarda unga nisbatan tamomila o'zgacha pozitsiya turganiga qaramasdan, mutafakkirning iroda, "yashashga intilish irodasi", "hukmronlikka intilish irodasi" kabi g'oyalari va mulohazalardan anchasini qabul qilib, rivojlantirdi. Nemis adibi va faylasufi Fridrix Nitsche shulardan biridir<sup>1</sup>. Nitsche iroda haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Har bir inson iroda erkinligiga ega. Erkin iroda eng yuksak qadriyatdir. Erkinlik irodaning asl mohiyatidir"<sup>2</sup>.

Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishning yo'llari va vositalarini erkin tanlaydi. Maqsadga erishishda doim ikki qonuniyatga amal qilinadi: birinchisi, har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarga bardosh berib, oliy maqsad sari intilish; ikkinchisi, maqsadga erishish yo'lida har qanday usul va vositalardan foydalanish (hattoki, inson salomatligiga ziyon yetkazadigan holatlar bo'lsa ham). Bu ikki yo'ldan birini inson erkin ravishda o'zi tanlaydi. Ma'naviyati yuksak inson har qanday qiyinchilikka qaramasdan maqsadga erishishda insoniyat va taraqqiyotga xizmat qiluvchi yo'lni tanlaydi. Iroda erkinligiga ega bo'lmagan shaxslar boshqalarning tazyiqiga tushib, ular nimani buyursa o'sha ishni qilishga tayyor bo'ladilar. Bunday insonlar mustaqil fikrga ega bo'lmaganliklari bois, eshitgan gaplariga amal qilib yashaydi. Biror bir ishni

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 68-bet

<sup>2</sup> Nazarov Q. G'arb falsafasi. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 552-bet

boshlamoqchi boʻlganlarida koʻproq atrofdagilarning koʻmagiga umid qiladi. Oʻzidan yuqori turuvchi shaxslarning buyruqlariga soʻzsiz itoat etadi.

Nemis faylasufi F.Nitsshe hayotni ong bilan ham aniqlaydi va inson ongi oʻz-oʻzini aniqlashga intiladi, oʻz taraqqiyotini bilishni xohlaydi, deb biladi. U hayotni tadqiq qilib, uni bilishda irodaning oʻrniga alohida eʼtibor qaratadi. Iroda inson ichki ruhiyatini namoyon qiluvchi, ichki qobiliyatini ochuvchi kuchdir<sup>1</sup>.

Hayot girdobida ruh har tomonga oʻzini uradi, girdobdan chiqib ketishga intiladi. Intilish ruhiyatga xos xususiyat va bu iroda, deb ataladi. Irodasi kuchli insonlar hayotiy qiyinchiliklarni yengadi, ziddiyatlarni osonlikcha hal qiladi, oqimga qarshi suzishga oʻzida kuch topa oladi. Ana shunday kuch, Nitsshe fikricha, tarixiy shaxslarda yaqqol namoyon boʻladi. Ular hayotga moslashmasdan, doim kurashadilar. Shuning uchun ham bunday shaxslarga jamiyatda yashash juda mushkuldir. Lekin ular oʻz notinch hayotlaridan nolimaydilar. Aksincha, hayot toʻfonlarini shodonlik bilan qarshi oladilar. Jamiyatning koʻpgina odamlari esa qiyinchiliklarga qarshi kurashmay, unga moslashadilar, rohat-farogʻatlarini oʻylab, ikkiyuzlamachilik qiladilar, dillari bilan soʻzlari bir-biridan ajralib qoladi<sup>2</sup>.

Faylasufning fikricha, iroda kuchiga qarshi turuvchi yana bir kuch shubhadir. Aynan, shubhalanish va qoʻrquv iroda kuchini susaytiradi. Shubhalanish irodaning kuch-quvvatini kesadi, qatʼiyatsizlikka, ikkilanishlarga olib keladi. Shubhalanish natijasida inson faol harakat qila olmaydi, vaziyatni oʻz hisobiga hal qila olmay qoladi. Falsafa tarixida shubha gʻoyasiga faylasuf Dekart asos solgan. Uning mashhur iborasi – ”Hamma narsani subha ostiga ol!” ilmiy fanlarning shoriga aylangan edi. Shubha inson amaliy faoliyatining kelajakdagi kutilgan natijaga boʻlgan ishonchsizligidan kelib chiqsa, boshqa tomondan u voqelikning asl mohiyatini bilishga yordam beradi. Shubha qachonki, haqiqatga xizmat qilgan taqdirdagina ijobiy natijaga olib keladi. Aks holda insonning xavfli quroliga aylanadi.

---

<sup>1</sup> Nazarov Q. Gʻarb falsafasi. - T.:”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 555-bet

<sup>2</sup> Oʻsha asar, 558-bet

Individual iroda birlamchi olamiy iroda bilan birlashadi. Lekin odamlar irodani mushaklar kuchi sifatida tushunadilar. Lekin hayvonot olamida sher zaiflarni ovlamaydi. Insoniy olam hayvonot olamidan ham vahshiylashib ketgan. Pul, mansab kuchi yuqori baholanadi. Nitsshe fikricha, hukmronlikka intilish insonlarning hayotiy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Bu ehtiyoj hozirgi jamiyatimiz uchun asosiy maqsadga aylanib qolgan. Eng moslashuvchi odam yuqori mansablarda ishlaydi. Aslida insonning iroda kuchini mustahkamlash kerak, deydi Nitsshe<sup>1</sup>.

Psixologiya fanlarida esa iroda tushunchasiga shaxsning psixik xususiyatidan kelib chiqib ta`rif beriladi.

Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo`nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini topish yuzasidan ma`lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish harakat yordamida amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqib psixologiyada insonning jami harakatlari ikki: ixtiyorsiz va ixtiyoriy harakatlardan iborat kategoriyalarga bo`linadi.

Ixtiyorsiz harakatlar anglanilmagan yoki yetarli darajada anglanmagan istaklar (mayllar, ko`rsatmalar va shu kabilar) ning paydo bo`lishi natijasida amalga oshiriladi. Ixtiyorsiz harakatlarda ongli ravishda zo`r berish bo`lmaydi. Shuning uchun ham bu harakatlar maqsadsiz ravishda namoyon bo`ladi. Odamning sarosimalik effekti, dahshat, ajablanish va shuning kabi boshqa holatdagi xatti-harakatlar ixtiyorsiz harakatlarga misol bo`la oladi.

Ixtiyoriy harakatlar (psixologiyada bu harakatlar irodaviy harakatlar deb ham nomlanadi) oldindan o`ylangan maqsad asosida, bizning xohishimiz bilan bo`ladigan faollikdir. Bu harakatlar bizning “o`zimiz” bilan bog`liqdir va u ongli ravishda zo`r berishimiz natijasida sodir bo`ladi<sup>2</sup>.

Shaxsning irodaviy faoliyati o`z oldiga qo`ygan anglangan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Zo`r berishni taqozo etmaydigan faoliyat bilan

---

<sup>1</sup> Nazarov Q. G`arb falsafasi. - T.:”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. 560-bet

<sup>2</sup> Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.:”O`zbekiston faylasuflari milliy” nashriyoti, 2008. 308-bet.

irodaviy faoliyat tarkiblari o`rtasida keskin farq bor. Irodaviy faoliyat o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o`z oldiga qo`ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlarga o`zi uchun kamroq qiymatga molik xatti-harakat motivlarini bo`ysundiradi.

P.I.Ivanov va M.E.Zufarovalarning “Umumiy psixologiya” kitobida iroda tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: “Iroda kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo`yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo`r berish natijasida voqe bo`ladi”<sup>1</sup>.

Psixologiyada iroda – bu insonning qo`yilgan maqsadlariga erishishiga yo`naltirilgan ongli faolligi, degan qat`iy fikr qaror topgan. “Iroda” tushunchasi mohiyatiga kishining maqsad qo`ya olish qobiliyati, o`z emotsiyasini boshqarish va xulqini iroda qilish kiradi. V.I.Selivanov irodani tadqiq etib, ayrim xulosalar chiqaradi:

a) iroda – bu shaxsning o`z faoliyatini va tashqi olamdagi ozini o`zi boshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda – insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

d) iroda – bu amaliy ong, o`zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o`zini ongli idora qilishidir;

e) iroda – bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog`liq bo`lgan xususiyatidir. Ammo u qaysidir harakatning motivi hisoblanmaydi<sup>2</sup>.

Iroda insonning o`z xatti-harakatlarini, xulq-atvorini o`zi bajarishini, u yoki bu xususiyatga ega intilish va istaklarining tormozlanishini talab qiladi, binobarin, u anglangan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo`lishini taqozo qiladi. Irodaviy faoliyatning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o`zini o`zi boshqaradi, o`zini qo`lga oladi, o`ziga tegishli xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, zarurat tug`ilsa, ularni tamoman yo`qota oladi ham.

---

<sup>1</sup> Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.:”O`zbekiston faylasuflari milliy” nashriyoti, 2008. 308-bet.

<sup>2</sup> G`oziyev E.G`. Psixologiya. - T.:”O`qituvchi” nashriyoti, 2012. 148-149-betlar.

Iroda paydo bo`lishining bosh omili – inson faoliyatining turli tarkiblari va irodaviy harakatlarning tizimli tarzda tatbiq etilishi hamda bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir. Irodaviy faoliyat shaxsning keng ko`lamda anglangan va ruhiy jarayonlarni amalga oshirish xususiyatiga doir irodaviy zo`r berishni talab qiladigan aqliy amallardan iborat. Bunday aqliy amallar favqulodda vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo`ljallangan harakatlar uchun vosita va operatsiyalar tanlash, maqsadni ko`zlash va unga erishish usullarini saralash, ularni tatbiq etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilarni tashkil qiladi. Ushbu amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operatsional tomoni deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ko`rinib turibdiki, iroda tushunchasiga nisbatan psixologlarda inson xohish-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi faoliyat shakli sifatidagi qarash shakllangan.

Iroda, avvalo, insonning o`zi uchun muhim ahamiyat kasb etgan narsa va hodisalarga nisbatan maqsad qo`ya bilishi va bu maqsadga erishish vositalarini, yo`llarini oldindan belgilashda, ma`lum bir qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda ichki va tashqi kuch sifatida namoyon bo`ladi. Iroda qiyinchiliklarga bardosh berish va uni yengib o`tish quolidir. Faqat bu quoldan inson qanday maqsadlar yo`lida foydalanishiga bog`liq.

Psixologiyada “Bola tayyor iroda bilan tug`ilmaydi. Iroda hayot jarayonida asta-sekin tarkib topib boradi. Lekin uning rivoji har bir bolaning yashagan muhiti va olgan tarbiyasiga bog`liq ravishda, uning barcha xususiyatlari bilan birlikda rivojlanadi”,<sup>2</sup> degan qarash mavjud. Bu, albatta, to`g`ri. Chunki ota-onasi yoki oila a`zolarining boshqa vakillari tirishqoq, o`z ishiga puxta, mehnatkash, sabr-toqatli, o`z peshona teri orqali kun kechiruvchi insonlar bo`lsa, bu oilada voyaga yetgan farzandda ham bu sifatlar qaror topib boradi. Bundan tashqari, bolani mehnat tarbiyasi orqali o`stirish lozim. Mehnat odamning irodasini chiniqtiradi va shakllanishiga sababchi bo`ladi. Ma`lumki, mehnat aniq bir

---

<sup>1</sup> G`oziyev E.G`. Psixologiya. - T.:”O`qituvchi” nashriyoti, 2012. 131-132-betlar.

<sup>2</sup> Psixologiya kursi. M.V.Gamezo tahriri ostida. - T.:”O`qituvchi” nashriyoti, 1972. 231-bet.

maqsadga yo`naltirilgan ongli va tartibli harakatlardan iborat bo`lib, jismoniy va aqliy kuch sarf etishni talab qiladi. Mehnatdan natija olish uchun uni ma`lum tartibda oxirigacha yetkazish va mehnatga bog`liq qiyinchiliklarni yengib o`ta bilish lozim. Mehnatning mana shu xususiyati insonning irodasini mustahkamlaydi va unda qunt bilan ishlay bilish qobiliyatini shakllantiradi.

N.Boymurodov o`zining “Amaliy psixologiya” kitobida irodasizlik haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Agar odamda o`z oldiga ongli ravishda qo`ygan maqsadga muvofiq kelmaydigan motivlar ustun bo`lsa, bunday jarayon irodaning emas, irodasizlikning namoyon bo`lishi hisoblanadi.

Irodasizlik doimo “kerak” motiviga emas, balki, “xohlayman” (yoki “xohlamayman”) motiviga berilganda paydo bo`ladi. Maqsad “Men nima qilishim kerak?” savoliga, motiv esa “Nima uchun men buni qilishim kerak?” savoliga javob beradi. Maqsad doimo aniq anglanadi, motiv esa xira anglangan, noaniq bo`lishi mumkin”<sup>1</sup>.

Inson o`z oldiga qo`ygan maqsadiga erishish yo`lida qancha ko`p sinov va qiyinchiliklarni yengib o`tsa, irodasi ham shuncha mustahkamlanib boradi. Irodasi mustahkam inson esa hayotda ko`p muvofaqiyatlarga erishadi. Bunday insonlarda yangiliklar yaratishga bo`lgan moyillik hissi kuchli bo`ladi. Boshqalar kabi oddiy hayot kechirishni istamaydi. Shuning uchun ham ularda boshqalarni o`zining ortidan ergashtirish va jamoaga boshchilik qilish qobiliyati kuchli bo`ladi.

Psixologlar iroda to`g`risida olib borgan tadqiqotlari natijasida uning muhim sifatlarini ajratib ko`rsatadilar. Jumladan, V.A.Krutetskiy o`z asarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat`iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo`lsa, irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat`iyatlilik, tirishqoqlik, o`zini uddalashga ajratadi. A.I.Sherbakov insonda namoyon bo`ladigan irodaviy sifatlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va

---

<sup>1</sup> Boymurodov N. Amaliy psixologiya. - T.:”Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2008. 221-bet.

tashabbuskorlik, uyushganlik va intizomlilik, urinchoqlik, tirishqoqlik, dadillik, qat`iyatlilik, chidamlilik, botirlik va jasoratlilik<sup>1</sup>.

Irodaning muhim sifatlaridan biri chidamlilikdir. Chidamlilik – bu insonning halokatli, mushkul, noxush holatlarga, og`riqqa, ochlik va tashna-likka, tabiiy qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyatidir. Bu tushuncha ziddiyatli bo`lganligi bois uni biryoqlama tushunish xatoga olib kelishi mumkin. Chunki chidamlilik insonning ham psixologik, ham fiziologik holatiga bog`liq. Og`riqqa, ochlik va tashnalikka inson ruhiyati chidashi mumkin, ammo organizmi chiday olmasligi va aksincha jismoniy jihatdan baquvvat organizm chidab, ruhiyati chiday olmasligi mumkin. Ruhiyatga ta`sir etuvchi ichki va tashqi omillarning oldi olinmasa oxir oqibatda ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ko`rib turganimizdek, irodaning har bir unsuri ziddiyatli ta`sirga ega.

Hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi hali mukammal emasligi sababli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

E.G`G`oziyev o`zining “Psixologiya” kitobida irodaviy faoliyatning o`ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko`rsatadi:

1) irodaviy harakatlarni shaxs hamisha ularning subekti sifatida amalga oshiradi;

2) irodaviy akt, harakatni shaxs to`la-to`kis mas`ullikni zimmasiga olgan ish, amal sifatida ichki dunyosida o`tkazadi;

3) irodaviy faoliyat tufayli inson ko`p jihatdan o`zini o`zi shaxs sifatida anglaydi;

4) irodaviy faoliyat sababli shaxs o`z hayot yo`li va taqdirini o`zi belgilashi lozimligini tushunib yetadi va hokazo. Shuningdek, irodaning faollashtiruvchi va jilovlab turuvchi funksiyalari birgalikda amal qilsa, faqat shundagina shaxs o`z maqsadiga erishish yo`lidagi to`siqlarni yengishi, kafolatlanishi mumkin<sup>2</sup>.

Iroda insonlarga hayot yo`lini tanlashga yordam beruvchi kuch sifatida namoyon bo`ladi. Har bir inson hayotda o`z o`rnini topishga harakat qiladi.

<sup>1</sup> G`oziyev E.G`. Psixologiya. - T.:”O`qituvchi” nashriyoti, 2012. 150-bet.

<sup>2</sup> G`oziyev E.G`. Psixologiya. - T.:”O`qituvchi” nashriyoti, 2012. 134-bet.

Buning uchun o'qiydi, izlanadi va ma'lum bir faoliyat bilan shug'illanadi. Shunga qaramay ba'zilar o'zlari o'ylagan natijaga erisha olmaganliklari sababli siqilib, ortga qaytmoqchi bo'ladi. Ana shunday vaziyatda iroda insonga ortga qaytmay maqsad sari intilish lozimligini ko'rsatadi. Shunday qilib, iroda insonning o'z illatlariga qarshi turishi va uni yenga olish kuchidir.

### **Psixologiyada irodaviy harakatlar quyidagi bosqichlarga bo'linadi:**

**1. Harakat maqsadini belgilash.** Irodaviy jarayon va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo'yishdan iboratdir. Maqsad deganda biz odam nima qilishi kerakligini anglashni tushunamiz.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo'yish bajariladigan ish-harakatlardan kelib chiqadigan natijalarni o'ylash va tasavvur qilish bilan muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Qilinadigan harakatning aniq maqsadi hamma vaqt shu maqsadga erishtiruvchi vositalar va yo'l-yo'riqlarni tasavvur etish bilan ham bog'liq bo'ladi. Biror narsani maqsad qilib qo'yish ma'lum sabablar, muayyan faktorlar va inson ayni shu chog'da idrok qilayotgan sharoitning o'zi bilan belgilanadi. Masalan, odam ba'zan qiyin ahvolga tushib qoladi va u bu ahvoldan qandaydir yo'l bilan chiqib ketishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U xalaqit berayotgan narsalarni yo'qotib, sharoitni o'zgartiradi va yangi sharoit yaratadi.

**2. Maqsad va vositalarni belgilash.** Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda, bulardan muayyan bir maqsadni hamda shu maqsadga olib boradigan ma'lum bir yo'lni tanlab olish lozim bo'ladi.

Biron maqsad va uni amalga oshirish vositalarini tanlash jarayonida ularning ma'qul yoki noma'qul ekanliklari chamalab ko'riladi. Biron maqsad va unga erishish yo'llarini tanlaganda har bir kishi ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, axloqiy prinsiplariga, estetik didlariga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlariga asoslanadi.

**3. Qarorga kelish.** Qarorga kelish – ma'lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning biron usuli yoki ma'lum yo'llari haqida to'xtash demakdir.



**4. Qarorni ijro etish.** Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Qabul qilingan qarorni amalga oshirishda inson iroda kuchidan foydalanadi. Qarorning ijrosi qancha tez va maqsadga muvofiq tarzda bajarilsa iroda samaradorligi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

## **1.2. Ong, ma`naviyat va iroda nisbati**

Ong faqat insonga xos fenomendir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topgan. O‘z-o‘zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘langan va shu muhitning ta`sirida faoliyat ko‘rsata oladi.

Ilmiy falsafa ta`limotiga muvofiq, ong yuksak darajada tashkil topgan materiyaning, ya`ni inson miyasining mahsuli bo‘lib, uning xususiyati voqelikni aks ettirishdan iboratdir.

Ong – inson miyasining funksiyasidir, bu funksiyaning mohiyati esa tashqi real dunyoni in`ikos ettirishdan iborat<sup>2</sup>.

Ongning muhim belgilaridan biri shuki, u tushinib yetilgan bilimdir. Inson ongli ravishda fikr yuritadi. O‘zini nimaga qarab intilayotganini anglaydi va unga erishish yo‘llarini izlab topadi. Ongning ma`nosi predmetni bilish, o‘zlashtirish, uning mohiyatini ochib berishdan iborat. Ong faqat obyektiv olam in`ikosini emas, balki insonning o‘z ruhiy faoliyatini anglashini ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u inson hissiyotlari, irodasini ham o‘z ichiga oladi. Hayot faoliyati natijasida insonning ham ongi shakllanib boradi. Faoliyat esa oldindan o‘ylangan iroda orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>1</sup> Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: "O`zbekiston faylasuflari milliy" nashriyoti, 2008. 310- 312-314-316-betlar.

<sup>2</sup> Tulenov J., G`afurova Z. Falsafa. - T.: "O`qituvchi" nashriyoti, 1997. 176-bet.

Iroda insonning o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda tartibga solish va ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda uchraydigan jami to'siq (qo'rqinch, jur'atsizlik, shubha) larni yengishga bo'lgan qobiliyatidir. Iroda amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi hamda insonning ham tashqi olam predmetlarini, ham o'z shaxsiy imkoniyatlarini bilishga asoslanadi.

Qadimgi antik davrda iroda deganda, inson aqli va hissiy kechinmalariga mansub ideal hodisaning amaliy xulq-atvor va harakatga aylanish jarayoni tushunilgan. Iroda ma'naviyat negizini tashkil etuvchi ongning o'ziga xos tarkibiy qismidir. Ma'naviyatning ko'p tomonlari, jumladan e'tiqod bilan u chambarchas bog'liq. Ongsiz iroda umuman vujudga kelmaydi. Iroda o'z oldiga muayyan maqsad qo'yish, turli variantlardan, usullardan, yo'llardan o'ziga ma'qulini tanlash ekan, irodaning negizida ong, tahlil, mulohaza, xulosa – tafakkur yotadi. E'tiqodsiz iroda ichki qat'iyat jihatdan zaif, stixiyali va irratsionalizmga ko'proq moyil bo'ladi. E'tiqodi zaif kishi qat'iy xulosaga kelolmaydi, ikkilanadi, o'z qarashlarini tez-tez o'zgartiradi yoki qaror qabul qilishda qiynalib, masalani o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadi. Ammo ba'zan o'ta chalkash, murakkab vaziyatda e'tiqodi mustahkam kishi ham biror qarorga kelolmasdan ancha qiynalishi, ikkilanishi mumkin. Hayotning qiyin muammolari to'g'risidagi ikkilanishlarni "tuturig'i" yo'q kishining ikkilanishlaridan farqlash lozim<sup>1</sup>.

Har bir inson o'z hayoti davomida ma'lum bir faoliyat (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy) bilan shug'illanadi. Bu faoliyatning asosida esa maqsad yotadi. Maqsad qo'yish, avvalo insonning ichki va tashqi zaruriyatidan kelib chiqadi, ya'ni inson nimani o'zi uchun zarur deb bilsa, aynan shu narsaga erishish yo'llarini izlay boshlaydi. Bu zaruriyat ongli ravishda paydo bo'ladi va iroda orqali amalga oshiriladi.

Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, qilingan ish-harakatdan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish orqali ma'lum qarorga

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 70-b.

kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi. Masalan, ota-onaning bolasini oliy o‘quv yurtiga kiritishi uchun o‘zining oilaviy budjetini tejab, ma‘lum fan bo‘yicha tayyorlov kurslariga qo‘yishi. Yoki kam maosh oladigan malakasi past ishchining o‘z malakasini oshirib boshqa ishga o‘tishga bo‘lgan zaruriyati. Inson o‘z maqsadiga erishish uchun nimalardandir voz kechadi, o‘zining hissiyotini, aqlini, bor kuchini shu maqsadga yo‘naltiradi.

Inson o‘zining ongli faoliyati bilan boshqa mavjudotlardan keskin farq qiladi. Inson uchun tabiat guzalliklaridan bahra olish va tabiatni o‘zgartirish, o‘zi uchun qulayliklar yaratish, o‘zaro munosabatlarda ma‘lum qoida va me‘yorlarga rioya qilish xosdir. Bularning barchasi ongli ravishda iroda vositasida amalga oshiriladi. Ongsiz iroda vujudga kelmaydi. Iroda faqat insoniyat olamida mavjud. Hayvonot olamida iroda yo‘q. Chunki hayvonlar o‘z oldiga ongli maqsad qo‘ya olmaydi. Ongning vujudga kelishi va rivojlanishida hamda irodaning mustahkam bo‘lishida mehnatning roli beqiyosdir. Insoniyat o‘zining ma‘lum maqsadga qaratilgan ongli mehnati tufayligina tabiatdan ajralib chiqdi. Aynan mehnatda ong va iroda yaxlit tizim sifatida ishtirok etadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan jamiki moddiy va ma‘naviy mahsulotlar ong va irodaning birgalikdagi mahsulidir. Iroda ongning shakllanishiga va ong irodaning shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda toblanadi. Shuning uchun ham yoshlarimizning mehnat tarbiyasiga katta e‘tibor qaratish zarur. Mehnat tarbiyasi faqat jismoniy mehnatga emas, shuningdek, aqliy mehnatga ham to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdan iborat. Mehnat bilan shug‘illangan insonlarda or-nomus, o‘z qadr-qimmatini anglash, o‘zini tuta bilish, dadillik, qat‘iylik, sabr-qanoat, chidam va toqat kabi irodaning muhim sifatlari namoyon bo‘ladi. Va, aksincha, boqamandalik, tekinxo‘rlik, laganbardorlik, firibgarlik, birovlarini aldab bo‘lsa-da o‘z maqsadiga erishish kabi salbiy xislatlar paydo bo‘lmaydi. Bunga uning or-nomusi va irodaning boshqa ijobiy sifatlari yo‘l qo‘ymaydi. “Inson mehnatda ulug‘lanadi”. “Insonni mehnat tarbiyalaydi” kabi so‘zlar, albatta, xalqimiz tomonidan bejizga aytilmagan.

Ma`naviyat sohasida faoliyat yuritgan olimlarimizdan biri A.Erkayev “QarDU xabarlari” ilmiy-nazariy, uslubiy jurnalda ong va irodaning bir-biriga ta`siri haqida o`zining fikr va mulohazalarini aytib o`tgan. Unga ko`ra: “ O`z navbatida irodasiz ong to`liq yaxlit tizim bo`lolmaydi, u nafaol in`ikos darajasida qolib ketadi, e`tiqod esa shakllanmaydi. Irodasiz ong olamni, voqelikni passiv (nafaol) aks ettiradi. Inson tevarak-atrofidagi hamma narsani ko`rib-bilib turishi mumkin, lekin ularni munosib baholay olmaydi, o`zining qat`iy nuqtai nazariga ega bo`lmagani uchun, tevarak-atrofdagi voqealar, muammolar va ular yechimi to`g`risida uzil-kesil fikrga kela olmaydi. Uning o`z fikri yo`q. Bunday kishilar bunyodkorlik salohiyatidan mahrum. Boshqa-larning ko`rsatmasiga, ortidan ergashtirishiga muhtoj. Irodasi bo`sh kishilar shu sababdan boshqalarning ta`siriga tez tushadi, har xil firibgarlar, qalloblar tuzog`iga ilinadi. Firibgarlar nafaqat irodasi bo`sh kishilarni, shuningdek, ko`ngli toza, ishonuvchan kishilarni ham aldab ketishi mumkin. Bunday hollarni chalkashtirmaslik kerak. Demak, irodasiz ma`naviyat shakllanmaydi yoki aniq tizimni tashkil etmaydigan juda jo`n tushunchalar va meyorlar yig`indisi bo`lib qoladi”, deya ta`kidlaydi<sup>1</sup>.

Irodasi past inson jamiyat yaratib qo`ygan imkoniyatlardan oqilona foydalana olmaydi. Jur`atsizligi sababli ichida to`planib qolgan bilimni yuzaga chiqara olmay, noto`g`ri bo`lsa ham boshqalarning bildirgan fikriga, ko`rsat-masiga amal qiladi. Bunday insonlarning yaratuvchilik, bunyodkorlik salohiyati past bo`ladi. Qat`iyatsizlik, muammoli vaziyatda o`zini yo`qotib qo`yish, sabrsizlik bunday insonlarga xosdir. Irodasiz insonlar ham o`z oldilariga oliy maqsadlar qo`yishlari mumkin, lekin uni amalga oshirishni o`zi bo`larchilikka tashlab qo`yadi. Uni amalga oshirolmaydi. Irodasiz inson hayotning qiyinchiliklariga chiday olmay tezda yengiladi. O`z omadsizligiga jamiyatni yoki boshqalarni sabab qilib ko`rsatadi. Irodada irratsional qatlam mavjudligi uchun u ma`naviyat bilan birikmasa, ijobiy emas, salbiy natijalarga olib keladi. Jinoyat yo`liga kirganlarning ko`pchiligi irodali, qo`rqmas, tavakkalchi kishilardir. Ba`zilarining tafakkur salohiyati ham ancha yuqori bo`ladi. Lekin bundaylarning

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma`naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 70-b

ma`naviyatida qusur bor. Ularda xudbinlik, axloqiy va huquqiy me`yorlarga, boshqa odamlarga nisbatan bepisandlik, bag`ritoshlik kuchli. Irodadagi irratsionallik doim ham salbiy oqibatlariga olib kelavermaydi. Agar u ma`naviyat bilan biriksa, ijobiy mazmundagi fidoyilikka, qahramonlik va jasorat ko`rsatishga omil bo`ladi. Islom Karimov o`zining "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch" kitobida ma`naviyat va iroda munosabati haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Bu hayotda odam ba`zan o`zini yo`qotib qo`yadigan murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo`qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og`ir savdolarga duch kelganda kim o`zini yo`qotmasligi mumkin? O`ylaymanki, birinchi navbatda o`z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma`naviy olami baquvvat bo`lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug` yuz bilan chiqa oladi. Ma`naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi.

Shu ma`noda, insonning ma`naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo`lamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o`ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o`z zimmasiga olishdan qo`rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo`lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo`lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi"<sup>1</sup>.

Iroda erkin tanlangan maqsadni amalga oshirishda zohiran voqe bo`ladi, yuzaga chiqadi. Bu jarayonda inson (millat) vaziyat talab qilsa, nimalardandir voz kechadi, nimalarnidir qurbon qiladi, maslagini himoya aylab, vaziyatni yengishga harakat qiladi, yo`qotishlarga, og`ir sinovlarga dosh beradi. Qat`iyat, bardosh, sabr-qanoat, yo`ldan toymay, ortga qaytmay, maqsadga intilish, imkon izlash, masalaning yangi yechimini topishga o`z aqlini, hissiyotini, kuchini safarbar etish, muvaffaqiyatsizliklardan cho`chimaslik, yutuqlardan esankiramaslik – irodani tashkil etuvchi unsurlardir. Iroda, bulardan tashqari g`urur, or-

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma`naviyat", 2010. 123-b.

nomus, fidoyilik, qahramonlik, jasurlik, mardlik, matonat, tavakkalchilik yoki qoʻrquv kabi tushunchalar va meyorlar bilan uzviy bogʻliq. Biz bu tushunchalarning har birini va ular ong bilan bogʻliqligini tahlil qilib oʻtirmaymiz. Mumtoz mutafakkirlar bu haqda koʻp dono fikrlarni bildirib ketgan. Biz faqat Vilyam Shekspir va Rene Dekartning irodaga oid fikrlarini keltirish bilan cheklanamiz: “Qoʻrqoqlik shuning uchun ham gʻoyatda zararliki, u irodani foydali ishdan chetga tortadi”, - deydi Dekart. Boshqacha aytganda, irodani falaj qilib qoʻyadi. Insonni maqsaddan voz kechishga undaydi. “Qatʻiy iroda yetishmaydigan odamda aql ham yetishmaydi”, deya uqtiradi Shekspir. Chunki u aql, mantiq obyektiv shart-sharoit nimani talab qilayotganini bilmaydi yoki bilsada, amal qilmaydi, teskari ish tutadi<sup>1</sup>.

Maʼnaviyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning borliqqa, hayotga, tabiatga, jamiyatga va oʻz-oʻziga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Insonning daraxt ekib bogʻ yaratishi va atrofini gulzorga aylantirishida, boshqalarga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatda boʻlishida ham uning maʼnaviyati namoyon boʻladi. Uning tanlagan maqsadi qay darajada yuksak boʻlsa, maʼnaviyati ham shu darajada yuksak boʻlishi, aksincha, tanlagan maqsadi jamiyat uchun xavfli, insoniyatga qarshi qaratilgan boʻlsa maʼnaviyati ham shu darajada pastdir.

Maʼnaviyat tufayli iroda mazmunan vatanparvarlik kasb etadi, soxta gʻoyalarga uchmaydi va gʻayriinsoniy maqsadlar yoʻliga adashib kirib ketmaydi. Maʼnaviyatning asl mohiyatidan ajralib qolgan iroda esa bunday xavfdan xoli boʻlmaydi. Chunki irodaga xos maʼlum darajadagi irratsionalizm, qatʻiyat, har qanday toʻsiqni yengib, maqsad sari intilish, agar maʼnaviy mezonlar unutilsa, vosita tanlashda adashib ketishga olib kelishi mumkin. Bu esa irodani bunyodkor kuchdan, vayronkor kuchga aylantiradi. Maqsad vositani har doim ham oqlamasligini irodaga maʼnaviyatning insonparvarlik meyorlari eslatib turadi.

Maʼnaviyat irodani tarbiyalaydi, irodaga qanday harakat qilish lozimligini koʻrsatadi. Toʻgʻri yoʻlga undash vazifasini oʻtaydi. Maʼnaviyat irodaga faqat toʻgʻri maqsad qoʻyish va uni amalga oshirish yoʻllari, usullari va vositalaridan

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Maʼnaviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 71-b.

ma`qulini tanlashga yordam beradi. Ma`naviyat tufayli iroda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. O`z navbatida iroda ma`naviyatni yuzaga chiqaruvchi omildir. Irodaviy faoliyat orqali ma`naviyat ham shakllanib boradi.

Iroda ma`naviyatga barqarorlik, o`zini muhofaza qila olish, rivojlanish, takomillashish, ya`ni yashovchanlik va samaradorlik xususiyatlarini bag`ishlaydi. Insonning o`ziga xos xarakteri, fe`l-atvorini tanlagan maqsadlari belgilaydi. Gegel to`g`ri ta`kidlaganidek: “Bir jihatdan, mohiyat - e`tibori bilan o`z oldiga mazmundor maqsad qo`yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o`ziga xosligi yo`qolgan bo`lur edi”<sup>1</sup>. Demak, iroda insonning (jamiyatning) ma`naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omillar-dan biridir. Qiyinchiliklardan cho`chimaydigan, mehnatdan qochmaydigan odam o`z oldiga mazmundor, yuksak maqsadlarni qo`yadi. Bu uni ko`pchilikdan ajratib turadi, unga o`ziga xos ma`naviy qiyofa bag`ishlaydi. Dangasa, qiyinchiliklar va izlanishlardan cho`chiydiganlar amalda oson erishiladigan maqsadlarni tanlaydi. Ular hayotga tezroq moslashishlari, ishlarini puxta baja-rib, barqaror turmush kechirishlari mumkin. Lekin ular boshqalar qatoridagi oddiy ommaviy odamlardir<sup>2</sup>.

Iroda insonga o`zligini anglashga, kelajak sari intilishga, yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda hamda tub manfaatlarini yuzaga chiqarishda kuchli ta`sir etadi. Iroda tafakkurdan keskin farq qiladi. Unda xohish-istak emas, balki qat`iyatlilik, vaziyatga qarab tezda qaror qabul qilish xosdir. Mardlik, jasurlik, dovyuraklik, qat`iyatlilik va boshqa tushunchalar irodaga xos tushunchalardir. Bu tushunchalar irodaga kuch bag`ishlab, maqsadga erishishda unga hamroh bo`ladi. Maqsad irodaga xos tushunchadir. U bor joyda iroda ham mavjud. Maqsadga erishishda yuzaga keladigan muvofaqqiyatsizlikni yengib o`tishda iroda insonga ichki kuch bo`lib yuzaga chiqadi. Boshqacha qilib

---

<sup>1</sup> Vorontsov V.. Tafakkur gulshani. Toshkent, 1981. 129-b

<sup>2</sup> Erkayev A. Ma`naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 71-b.

aytganda, insonda muvofaqqiyatsizliklarga, turli yot g'oyalarga qarshi kurashda immunitet vazifasini o'taydi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan jamiki ma'naviy va moddiy boyliklar hamda qadriyatlar irodaning mahsulidir. Har bir ijodkor o'z ijodi mahsulini iroda orqali yaratadi va namoyon etadi. Bilish irodaning shakllanishiga yordam boradi, lekin bevosita shakllantirmaydi. Nemis faylasufi A.Shopengauer (1788-1860) quyidagi fikrni ilgari suradi: "Bilish irodaga xizmat qiladi. Bilish ayrim obektiv dunyo hodisalariga qaratilgan. Irodaning olamdagi ko'rinishi obektivdir va o'z darajalariga ega". Uning fikricha, bizning bilish faoliyatimiz dunyoning o'ziga qaratilmagan, balki bu dunyo hodisalariga qaratilgandir.

Har bir insonda individual tarzda iroda mavjud. O'qishga, ishga va kundalik turmushga oid maqsadlarimizni amalga oshirishda barchamiz irodaga duch kelamiz. Irodasi kuchli insonlarga o'qishning turli qiyinchiliklariga bardosh berib, ilm olishga intiladi. Ishdagi ko'ngilsizliklardan, muvofaqqiyatsizlikdan o'zini yo'qotib qo'ymasdan o'z oldiga qo'ygan maqsad sari intiluvchi, turmush qiyinchiliklaridan esankiramasdan undan chiqib ketish yo'lini topa biluvchi shaxslarni irodasi kuchli shaxslar deyish mumkin.

Ishyoqmaslik, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'ziga ishonmaslik kabi tushunchalar irodani zaiflashtiradi. Irodasi zaif inson hayotga yengil-yelpi qaraydi. O'zi mehnat qilib kun kechirishdan ko'ra, tayyor mahsulotni qabul qilishni istaydi. Bunday insonlarda ekstremal vaziyatlarda vataniga qarshi holat bo'lsa-da, oson yo'lni tanlash hissi kuchli bo'ladi, iroda o'rnini qo'rquv egallab, o'z manfaatini o'ylab ish tutadi. Irodasi zaif insonlarni yo'ldan ozdirish ham oson kechadi. Dinning asl mazmun-mohiyatini anglamagan holda ayrim yoshlarning diniy ekstremistik guruhlar safiga qo'shilib chet ellarda qo'paruvchilik ishlariga qatnashayotganligi, hattoki o'z Vatani tinchligiga xavf tug'dirayotgani ham aynan shundandir. Buning sabablari ko'p, albatta. Lekin asosiy sabab ularning ma'naviyati qay darajada shakllanganligida, irodasining zaifligida, fikrlash qobiliyatining pastligidadir. Shuning uchun ham yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.



Irodasiz ma`naviyat yuzaga chiqmaydi. Chunki iroda insonning erkin tanlash asosida harakat qilishidir, ya`ni uning yaratuvchiligidir. Iroda insonni olamga, tevarak-muhitga, vaziyatga nisbatan faol bo`lishini, tegishli qaror qabul qilishini va uning asosida zarur ishni amalga oshirishni bildiradi. Iroda yaratuvchi kuch sifatida ma`naviyatning uzviy qismidir. Faqat u ma`naviyatning boshqa tarkibiy qismlaridan ancha farq qiladi.

Inson jahli chiqqanida, g`azablanganida va turli stres holatlarida amalga oshirmoqchi bo`lgan ishini o`ylab o`tirmasdan tezda yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Bunday holatlarda har bir inson qiladigan ishining kelajakdagi oqibatlarini oldindan ko`ra olmaydi, hattoki bu haqda o`ylab ham o`tirmaydi. Iroda uchun ratsionalizm qatorida irratsionalizm ong ostiga taalluqli va ongdan tashqaridagi transident hodisalar ham xos. Shu bois iroda doim ham ongli, maqsadga muvofiq, ratsional harakat shaklida namoyon bo`lmaydi. U ba`zan or-nomus, g`urur, burch, vijdon ehtirosleri ta`sirida irratsional, indeterministik xulq-atvor ko`rinishida yuzaga chiqishi mumkin. Bu A.Erkayevning "Milliy g`oya va ma`naviyat" kitobida keng yoritilgan. Irodaviy faoliyat orqali inson ma`naviyati mustah-kamlanib boradi. Har bir inson hayoti davomida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyin-chiliklarni yengib o`tish uchun undan katta kuch talab etiladi. Mavjud qiyinchiliklarni yengib o`tish davomida inson mukammallashib, bilimi oshib boradi. Uning dunyoqarashi kengayadi, ruhiyati tetiklashib, o`ziga bo`lgan ishonchi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, irodasiz ma`naviyat kemptik, notugal va amaliy jihatdan zaifdir. Ma`naviyatsiz iroda esa stixiyali, ko`r-basir, ziddiyatli va xavfli ijtimoiy energiya, kuch darajasida qolib ketadi. Uning yaratuvchilik salohiyati past bo`ladi. Faqat ijobiy maqsadga yo`naltirilgan iroda unumli natijalarga olib keladi.

## I bob bo'yicha xulosa

1. Inson yashashi, hayot kechirishi uchun doimo ma`lum bir faoliyat bilan shug`illanib kelgan. Insonning maqsad asosidagi bu faoliyati iroda orqali yuzaga chiqqan. Iroda insonga qiyinchiliklarni yengib o'tishda va oldinga qarab harakat qilishda yordam bergan. Shuning uchun ham faylasuflar va psixologlar iroda tushunchasini o'rganishga va unga ta`rif berishga harakat qilganlar.

2. Falsafa tarixida irodaga nisbatan bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshi fikrlar, ta`limotlar ko'p. Ayniqsa iroda erkinligi to'g'risida. "Iroda falsafasining otasi" deya nom qozongan nemis faylasufi Artur Shopenhauer (1788-1860) va uning izdoshlari irodani olamning asosiga qo'ygan. Olamning o'zi ham, olamdagi barcha narsalar ham iroda mahsuli degan fikrni ilgari surishgan. Iroda aqlga bog'liq emas, iroda insondagi kuch-qudrat sifatida aqldan ustun turadi deyishgan. Faylasuflar Avreliy Avgustin va Fredrix Nitsshelarning ijodida ham irodaga nisbatan valyuntaristik (iroda tafakkurdan yuqori turadi) qarash ustun turadi.

3. Psixologlar tomonidan esa irodaga turlicha, biryoqlama tariflar berilgan. Psixologiyada inson tomonidan qilinadigan harakatlar ikkiga bo`linadi: ixtiyorsiz va ixtiyoriy harakatlar. Aynan ixtiyoriy harakatlarni psixologlar irodaviy harakatlar sifatida ta`riflaydilar. Unga ko'ra irodaviy harakatlar – bu maqsadga erishish yo'lida turgan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma`lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlardir.

4. Psixologlar P.I.Ivanov va M.E.Zufarovalar irodani kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida voqe bo'ladi deb talqin qiladi.

5. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, qilingan ish-harakatdan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish orqali ma`lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi.

6. Ma`naviyat irodani tarbiyalaydi, irodaga qanday harakat qilish lozimligini ko`rsatadi. To`g`ri yo`lga undash vazifasini o`taydi. Ma`naviyat irodaga faqat to`g`ri maqsad qo`yish va uni amalga oshirish yo`llari, usullari va vositalaridan ma`qulini tanlashga yordam beradi.

## II BOB. MA`NAVIYAT VA IRODA DIALEKTIKASI

### 2.1. Irodaning insonning axloqi va yaratuvchanlik faoliyati bilan o‘zaro aloqadorligi

Iroda insonning o‘z oldiga muayyan maqsad qo‘ya bilish va bu maqsadga erishishning yo‘llari va vositalarini erkin tanlay olish salohiyatidir. Iroda erkin tanlashning yuzaga chiqishi sifatida aslida axloq hodisasidir. Shu sababdan antik davr olimlari etikaning predmeti – iroda, deb hisoblaganlar. Inson har qanday qaror qabul qilishdan avval uning oqibatlari, odamlarga va jamoaga (jamiyatga) ziyon yetkazmasligi to‘g‘risida o‘ylashi kerak. Erkin tanlash – axloqiy tanlashdir.

Umuman, inson hamda jamiyat axloqiy hayotida iroda erkinligi va tanlovining ahamiyati beqiyos. Masalan, tarixdagi bir ta`sirchan voqeani olib ko‘raylik: bozorda mutasavvif alloma, buyuk shoir Nasimiy g‘azalini yod o‘qiyotgan bir yigitni kufirda ayblab, hibsga oladilar. Yigit oldida ikki yo‘ldan birini tanlash turardi: yo piri Nasimiyga xiyonat etish va tavba qilib banddan ozod bo‘lish yoki g‘azalni o‘zimmiki, deb o‘limga tik borish. Pokdomon, ornomusli yigit ikkinchi yo‘lni tanlaydi. Rais (diniy marosim va urf-odatlarining bajari-lishini kuzatib, tosh-tarozilarning to‘g‘riligini tekshirib yuruvchi mansabdor shaxs) uning terisini shilishga buyuradi. Olomon – tomoshabin yig‘iladi. Shu payt Nasimiy kelib qoladi. Voqeadan xabar topgan shoir oldida ham endi tanlov turardi – tanlamaslikning iloji yo‘q: yo o‘zini oshkor qilib, yosh yigitni jallod qo‘lidan qutqarishi va uning o‘rnini egallashi yoki olomon orasidan sekin sirg‘alib chiqib ketib, muridining o‘limi evaziga o‘z jonini asrab qolishi kerak. Nasimiy birinchi yo‘lni tanlaydi: o‘zini jallod qo‘liga topshirib, begunoh yigitni ozod etadi. Rais endi shoirning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga qon sachraydi. Shunda rais odamlarga, nari turinglar, bu kofirning tomchi qoni biror yeringizga tegsa, o‘sha yerni kesib tashlash kerak bo‘ladi, deydi. Rais gepini tugatar-tugatmas, Tangri qudrati bilan bir tomchi qon sachraydi. Olomon raisdan qon tekkan barmog‘ini kesib

tashlashini talab qiladi. Endi rais oldida tanlov turardi: yo barmog‘ini kestirib, gapining ustidan chiqishi yoki gapidan qaytib, riyokorlik qilishi kerak. Rais – axloqan nopok, qo‘rqoq va xudbin odam – gapidan qaytadi. Nasimiy esa qiynoq-qa mardonavor chidab, churq etmaydi, aksincha, raisning ahvolini ko‘rib, istehzoli kuladi va so‘nggi g‘azalining oxirgi baytini o‘qiydi:

*Ey Nasimiy, chun muyassar bo‘ldi iqboli visol,*

*Qo‘y, teringni so‘ysa so‘ysun bu palid qassoblar<sup>1</sup>.*

Bo‘lib o‘tgan bu voqeadan erkin tanlov asosida yigit, shoir va raisning axloqiy xatti-harakatlari qay darajada yuzaga chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin.

Insonning axloqiylik darajasini, aynan erkin tanlov jarayonida yaqqol ko‘rish mumkin. Ba‘zan inson erkin tanlov holatida o‘zi yoqtirmaydigan, hayoti uchun xavfli yo‘llarni ham tanlashiga to‘g‘ri keladi.

Erkin tanlov inson hayoti kabi murakkab ekan, erkinlikning o‘zi nima? “Erkinlik” atamasiga falsafiy lug‘atlarda odatda bunday izoh beriladi: “Erkinlik – insonning oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘lida o‘z niyatlari, xohish-istaklari va manfaatlariga mos tarzda faol harakat qilish qobiliyati”<sup>2</sup>.

Bir qarashda hammasi aniq-ravshandek: erkinlik – insondagi qobiliyatlardan biri. Lekin ana shu qobiliyatdan foydalanish g‘oyat murakkab jarayon. Bu jihatdan uni o‘ta majhul, noaniq, o‘zgarib turuvchi tushuncha deyish mumkin. Erkinlik qadim-qadimdan insonni ohanrabodek o‘ziga tortib keladi. Chuqurroq o‘ylab ko‘rsak, butun insoniyat tarixi ham, alohida inson hayoti ham aslida erkinlik uchun kurashdan iborat. Biroq u amalda hamma vaqt ham ijobiy hodisa sifatidagi mohiyatini saqlab qololmaydi. Bu haqda buyuk olmon faylasufi V.Vindelband shunday degan edi: ...o‘tmishda erkinlik nomi ostida ko‘p ulug‘ ishlar amalga oshirilgan, lekin aynan uni ro‘kach qilib qanchadan-qancha gunohlar ham sodir etilgan. Odam xayoliga keltirganida yuragi dukillab urib ketadigan shu kalom bilan qanchadan-qancha jinoyat-u, nodonliklar, ehtiros aldovi-yu so‘qirliklar o‘zini bezadi va bezamoqda”<sup>3</sup>. V.Vindelband fikrini

<sup>1</sup> Abdulla Sher. Erkinlik, ixtiyor va iroda // “Tafakkur” jurnali. Toshkent. 2/2012. 27-bet

<sup>2</sup> Философский энциклопедический словарь. М., “Советская энциклопедия”, 1989, стр. 569

<sup>3</sup> Виндельбанд В. О свободе воли. Минск – Москва. “Харвест” – “АСТ”, 2000, стр. 8

davom ettirib, “erkinlik” atamasining mazmuni siyosat va falsafa olamida hanuz turlicha talqin etib kelayotganini, “haqiqiy erkinlik” tushunchasi nimani anglatishi esa hali ham ayon emasligini aytib o`tadi.

“Erkinlik” tushunchasiga olim A.Erkayev quyidagicha izoh beradi: “Erkinlik jamiyat va inson taraqqiyotining zarurat shartidir. F.Shiller ta’biri bilan aytganda, maqsadi ulug‘lashgan sari, odam ham ulug‘lashib boradi. Yuksak maqsadi orqali, unga halol yo‘l va vositalar tanlab intilish insonni olijanob fazilatlar bilan boyitadi. Mumtoz mutafakkirlar va zamonaviy allomalar nojoiz vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo‘lolmasligini ta’kidlaganlar. Ya’ni erishish uchun nopok, nohalol yo‘lni talab etadigan maqsadning o‘zi ham tubandir.

Erkinlik ozodlik, mustaqillikka qo‘shimcha ravishda yana shaxs va millat o‘z obyektiv ehtiyojlarini, davr, shart-sharoit taqozosini, bugungi kun va kelajak talablarini, jamiyatning rivojlanish, yangilanish tendensiyalarini to‘g‘ri anglab, barcha sa’y-harakatlarini, amaliy bunyodkorlik ishlarini ularga monand qurishni bildiradi. Noto‘g‘ri anglangan zarurat haqiqiy erkinlikka olib kelmaydi. Balki inson (jamiyat) o‘z xatosining tutqiniga aylanadi. Erkinlik o‘zboshimchalik emas, bilganimni, istaganimni qilaman degani emas. U zaruriyatni anglash va unga muvofiq harakat qilish sifatida mas’ullikdir.

Masalaga chuqurroq yondashilsa, erkinlik – bu jamiyat va uning kelajagi oldidagi mas’uliyatdir. Shu sababdan ayrim hollarda aql-zakovati kuchli, irodali shaxslar jamiyat kelajagini o‘ylab, ba’zi bir tartib-qoidalarga qarshi chiqadilar, tinch-osoyshta, huzur-halovatli turmushini xavf-xatarga qo‘yadi, qiyinchiliklarga duch keladi. Tashqi jihatdan bunday shaxslar qiyinchilik va muammolar qurshoviga tushsa-da, ichki jihatdan ma’naviy erkin shaxs bo‘lib qolaveradilar.

Erkinlik iroda bilan uzviy, dialektik birlikni tashkil etadi. *Iroda ongli tanlangan maqsad sari o‘z faoliyatini yo‘naltirish, muayyan vositalar va usullarni belgilash sifatida erkinlikning “moddiylashuvi”, voqeligidir.* Erkinlik

esa irodaning mohiyati, ichki salohiyati, hayotbaxsh kuchi va tashqi oliy mo'ljalidir. Ma'naviyat erkinlikka iroda orqali va uning vositasida intiladi"<sup>1</sup>.

Iroda aslida axloqning yuzaga chiqqan shaklidir. Insonning o'z oldiga ma'lum bir maqsadni qo'yishining o'zi axloq bilan bog'liq, ya'ni maqsad qanday g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Ezgulikka xizmat qiladigan g'oyalarni yoki yovuzlikka xizmat qiladigan g'oyalarni. Ezgulik va yovuzlik axloqning asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning xatti-harakati yo yovuzlikka, yoki ezgulikka kiritiladi. Dunyodagi barcha dinlarda ikki muqobil ibtido – ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash bo'lib o'tgan. Masalan, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda bilan yomonlik va yovuzlik xudosi Anxramaynu o'rtasidagi kurash abadiy davom etadi, Axloq bu kurashning ifodasidir, degan g'oya ilgari suriladi. Xristianlik, yahudiylik va boshqa dinlarda ham yaxshilik va yomonlikning o'z ifodasi bor. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi.

Nafsiga qul inson irodasiz inson hisoblanadi. Chunki bunday insonlarning nafsi irodasidan ustun keladi. Nafsga berilgan inson biror ish qilishdan oldin uning moddiy tomonini o'ylaydi. Birovlarga yordam berishdan ko'ra ulardan qanday qilib bo'lsa-da pul undirish yo'llarini izlaydi. Mehnat qilib pul topishdan ko'ra o'g'irlik qilib pul topishni afzal ko'radi. Chunki mehnat qilib pul topish insondan iroda kuchini talab etadi. Qizig'i shundaki, nafsga berilgan insonlarning ko'pchiligi moddiy tomondan yaxshi ta'minlangan. Nafsga berilishining sababi esa o'zining peshona teri evaziga topgan puliga qanoatlanmay, qo'shimcha tarzda boshqa joydan halol yo'l bilan emas, balki harom yo'l bilan pul topishga harakat qilishidadir. Masalan, oylik maoshi bola-chaqasini boqishga yetmayotganligi sababli kichik amaldor ilk marotaba pora oladi. Ikkinchi marotaba boshqa xarajatlarini qoplash bahonasida yana pora

---

<sup>1</sup> A. Erkayev. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarлари ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Qarshi. 3/2015. 74-75-betlar

oladi. Uchinchi marotaba esa katta boylikka ega bo'lish uchun pora oladi. Shunday qilib inson asta-sekin nafs quliga aylanib boradi.

Islomda, uning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Qur'oni Karim bajarishga buyurgan yaxshi xulqlarga insonlar amal qilishsa, o'zlari uchun katta baxtga sazovor bo'ladilar. Qur'oni Karimda to'g'ri yo'lga yurishlik istiqomat (o'zini o'zi isloh qilish) tushuncha-sida ifodalangan. Qur'onda istiqomatda bo'lganlarga, ya'ni o'zini o'zi isloh qilganlarga katta vadalar berilgan: "Kim bunday jabru zulmdan keyin tavba qilib, o'zini tuzatsa, albatta, Alloh uning tavbasini qabul qilar" ("Moida" surasi, 39-oyat). Istiqomat gunoh ishlarni qilib qo'yganlar uchun qalbini poklash sari umid tug'diradi va ularni noumidlikdan qutqarib yangi saodatli hayotga chorlaydi.

Islomda olijanob axloqning eng muhim tushunchalari ta'riflanib, insoni-yatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson (yaxshilik qilish), kechi-rimli bo'lish, sabr-qanoat, rostgo'ylik, shirinso'zlik, ota-onani, o'zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Ayni vaqtda yomon xulq-atvor tushunchalarining mohiyati ham ko'rsatilib, ulardan saqlanishga undaladi. Bular – baxillik, hasad, tama, yolg'onchilik, takabburlik (kibru havo), g'iybat, zino va shu kabilardir. Shu tarzda insoniyatning butun amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajratiladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olijanob axloqqa chaqirishlari, nojo'ya ishlardan qaytarishlari Alloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki jismoniy va ma'naviy pok, taqvodor bo'lsa, unday kimsa axloqsizlik yo'lga kirmaydi<sup>1</sup>. Ko'rib turganimizdek dunyodagi barcha dinlarda insonlar poklikka, halol yashashga, baxil, hasadgo'y, yolg'onchi bo'lmaslikka chaqiriladi.

Insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi nopok ishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, uni amalga oshiruvchi usul va vositalar ham shunga muvofiq ravishda tanlanadi. Arastu bu haqda quyidagi fikrlarni bildiradi: "Insonning vazifasi amaliy va axloqiy fazilatli bo'lishdadir, fazilat to'g'ri maqsadga

---

<sup>1</sup> O'zME. 1-tom, 2000. 530-bet



yoʻnaltirilsa, amaliy chora topadi. Inson jonida tadbirkorlik kuchi bor, inson u tufayli maʼlum maqsadga munosib chora topdi va qoʻlga kiritdi. Agar maqsad yaxshi boʻlsa, unda bu kuch tahsinga sazovor, bordi-yu maqsad axmoqona boʻlsa, unda bu qobiliyat hamma narsaga tayyor. Arastu uchun maqsad va chora birlikni tashkil etadi. Bunda maqsad chorani tanlaydi. Shuning uchun maqsadning maʼnaviy xarakteri faqat maʼnaviy vositalarga ijozat beradi va aksincha, axloqsiz maqsadlarga maʼnaviyatsiz vositalar munosib keladi.

Maqsad maʼlum turning faoliyati yoki predmetidir, iroda esa maqsadga intilishlikdir. Iroda va maqsadni Arastu shunday bogʻlaydi. Arastu uchun iroda erkinligining hududlarini tadqiq etish nihoyatda muhimdir. Inson odobidan maqsad, chora va harakat qanchalik muhim ekan, mutafakkir bularning inson irodasiga nechogʻli taʼsiri borligini koʻrsatadi”<sup>1</sup>.

Axloqi buzuvchi inson maqsadga erishishda har qanday usul va vositalardan foydalanadi. Uning uchun birinchi oʻrinda qanday boʻlmasin maqsadga erishish yotadi. Maqsadga erishish yoʻlida tanlangan vosita uni qiziqitmaydi. Buni tarix misolida ham koʻrishimiz mumkin. Har bir davrda odil, insonparvar shohlar boʻlgani kabi oʻz maqsadidan qaytmaydigan, maqsadga erishish yoʻlida qancha boʻlsa ham qurbonliklar berishga tayyor, oʻz vijdonini, or-nomusini sotuvchi shohlar ham faoliyat yuritgan. Oʻz davlatini dunyodagi eng kuchli, xalqini esa boshqa xalqlar ichida eng buyugiga aylantirish bahonasida boshqa davlatlarga nisbatan bosqinchilik yurishlarini uyushtirib, qancha xalqlarni qirib tashlagan. Bunday shohlar faqat bitta maqsad uchun kurashgan, u ham boʻlsa yer yuzidagi barcha xalqlarni oʻziga tobe etish orqali davlatni umrbod boshqarish va dunyodagi barcha boyliklarga ega boʻlish. Bor kuch va gʻayratini shu maqsadga qaratgan. Hattoki, bu maqsad yoʻlida oʻz xotini va qizidan vosita sifatida foydalanganlari ham boʻlgan. Bir tomondan, ular maqsadga erishish yoʻlida koʻp qiyinchiliklarni yengib oʻtganligi bois kuchli iroda sohibi boʻlishi mumkin, ammo ikkinchi tomondan, maqsadni deb oʻz vijdonini, or-nomusini sotishi,

---

<sup>1</sup> Nazarov Q. Gʻarb falsafasi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, - T. 2004. 161-bet

yovuz ishlarni amalga oshirishini axloq nuqtayi nazaridan qanday baholash mumkin.

Irodaning axloqiyligi deganda biz, odatda, kishi oldiga qanday maqsadlar qoʻyganligini, bu maqsadlarga qanday vositalar yordami bilan erishilishini, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli tugʻilishini, maʼlum bir qarorga kelishda kishi qanday tamoyillarga tayanishini nazarda tutamiz. Baʼzan inson oldiga oliy maqsadlar qoʻyishi mumkin, ammo bu maqsadga erishishda axloq qoidalariga toʻgʻri kelmaydigan usul va vositalardan foydalanishi ham mumkin.

Maqsad har doim ham vositani oqlamasligi, inson vosita emas, aksincha maqsad ekanligi barchamizga maʼlum. Maqsad qachonki barcha insonlar manfaatini oʻylab qoʻyilgandagina ijobiy natijalarga olib keladi. Aks holda bu maqsad jamiyat uchun xavfli tus olishi mumkin

Dastlab insonlar oʻrtasidagi munosabatlar axloq vositasida tartibga solingan. Axloqning eng muhim vazifasi shundan iboratki, u insonlarni maʼlum bir faoliyat bilan shugʻillanishga undaydi va cheklaydi. Buning natijasida inson oʻzining qanday faoliyat bilan shugʻillanishi lozimligini bilib oladi. Jamiyat qoralaydigan, eʼtiroz uygʻotadigan ishlar bilan shugʻillanish yaxshi natijalarga olib kelmasligini anglab, bunday ishlar bilan shugʻillanmaslikka harakat qiladi. Irodasi kuchli inson jamiyatda oʻrnatilgan axloqiy va huquqiy qoidalarga amal qilib yashaydi. Bunday yashash insondan kuchli bilim va irodani talab etadi.

Inson tugʻilganida dastlabki axloqiy bilimlarni oilada oʻzlashtira boshlaydi. Bu axloqiy bilimlar esa taqiqlardan boshlanadi. Hali oʻzini anglab olmagan chaqaloq oʻrmay boshlaganda koʻziga koʻringan narsalarni qoʻliga olib ogʻziga solishni istaydi. Ota-onasi farzandiga iflos narsalarni qoʻliga olmaslik va sogʻligiga ziyon yetkazadigan joylarga bormaslikni soʻzi va imo-ishoralari orqali koʻrsatib taqiqlaydi. Ana shunda farzand iflos narsalarni ushlamaslikka va bunday joylarga bormaslikka harakat qiladi. Farzanlar ulgʻay-ganidan soʻng oʻgʻil va qizlar oʻrtasida uyat, hayo, ibo tuygʻulari paydo boʻladi. Ular oʻrtasidagi munosabatlar axloqiy qoidalar orqali mustahkamlanib qoʻyiladi.

Insonlarning bir-biriga nisbatan yomon munosabatda bo'lish, haqoratlash, shaniga tegish, mol-mulkiga ko'z olaytirish, oo'g'irlik qilish bir tomondan axloqqa zid bo'lsa, ikkinchi tomondan huquqiy javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Oddiy taqiqlardan boshlangan axloqiy ko'rsatmalar inson ongida yaxshi va yomon tushunchalarining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Ya'ni qaysi ish yaxshiyu, qaysi ish yomon ekanligiga tushunib yetgan. Yomon ishlar bilan shug'illanish jamoatchilik tomonidan qoralanganligi bois faqat yaxshi ishlar bilan shug'illanishga harakat qilgan.

Inson asta-sekin jamiyat bilan muloqotga kirishadi. O'qib-o'rganib o'zi yoqtirgan sohaga o'qishga kiradi. Irodasi kuchli inson o'qish davomida bilimni oshirib jamiyat uchun kerakli kadr bo'lib yetishishga harakat qiladi. Bilim olish insondan sabr va katta kuch talab etganligi bois o'z kuchiga ishonmagan irodasi zaif insonlar bilim olishdan ko'ra bilim talab etmaydigan, ammo katta foyda keltiradigan biror ish bilan shug'illanishni istaydi. Shuning uchun ham bunday insonlar pul topaman deb firibgarlarning tuzog'iga tushib qoladi. Ishonuvchanligi sababli hayotda ko'p aldanadi. Mustaqil fikri bo'lmaganligi bois o'zidan yuqori turuvchi shaxsning ko'rsatmalariga ko'r-ko'rona amal qiladi. U nimani buyursa o'sha ishni bajaradi. Natijada bunday insonlar asta-sekin vositaga aylanib boradi. Firibgarlar o'zining yovuz ishlarini amalga oshirishda bunday insonlardan ko'p foydalanadi. Shuning uchun ham bunday insonlar hayotda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

Irodasiz insonlar jamiyatda o'rnatilgan axloq qoidalariga bepisandlik bilan qarab, nima uchun men bu qoidalarga amal qilib yashashim kerak deb ko'ngliga kelgan ish bilan shug'illanadi. Bu esa atrofdagilarning xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday insonlar muammoga duch kelganida muammoning yechimi yuzasidan chuqur o'ylab, ma'lum bir qarorga kelishdan ko'ra, masalaning oson yechimini topishga harakat qiladi. Shuning uchun ham ularning qabul qilgan qarori ko'pincha adolatsiz bo'lib chiqadi. A.Erkayev ta'kidlaganidek: "Tarixda insonparvarlikka, ezgulikka zid qaror qabul qilishlarga misollar juda

ko'p. Odamlarni qo'rquvda va itoatda saqlab, mamlakatni zo'rvonlik yordamida boshqarish maqsadida yovuz hukmdorlar va qattol tuzumlar axloqiylikka zid siyosat yuritganlar. Ular o'z siyosatini ko'pchilik manfaatlari, intizom va tartib, xalq, millat tinch-osoyishtaligi va ravnaqi bilan oqlashga harakat qilganlar. Mustabid hukmdorlar jamiyatda o'zlariga ma'qul o'zgarishlar qilish uchun hatto ayrim tabaqalarni, qator xalqlarni va boshqacha fikrlaydigan kishilarni huquqiy jihatdan cheklagan, qatag'on qilgan. Gitler davrida Germaniyada yahudiylar va lo'lilar jismoniy o'limga mahkum etildi. Noariy xalqlar huquqlari cheklandi.

Sobiq SSSRda sotsializm qurish tajribasi ham ko'plab misollar beradi. Burjuaziya va quloqlar (o'ziga to'q, ishchan, xo'jaligi butun dehqonlar) sinf sifatida yo'q qilindi. Millionlab odamlar lagerlarga, tikanli simlar ortiga qamoqqa jo'natildi va quldek ishlatildi. Ularning ko'pchiligi lagerlarda o'lib ketdi. Yana millionlab odamlar revtribunallar (inqilobiy tribunallar), uchlik sudlar, harbiy va umumiy jinoyatchilik sudlari qarorlari bilan otib tashlandi. KPSS XX syezdidan keyin keng ko'lamdagi qatag'onlar, Stalin shaxsiga sig'inish to'xtatilgan bo'lsa-da, insonga sotsializm qurishning bir murvatchasi, vositasi, deb bepisand qarash SSSRda davom etdi. SSSRda insonga nisbatan munosabat sinfiylik va partiyaviylikka tayanar edi. Shu bois u o'rta asrlardagi despotik davlatlar siyosatidan qattolroq edi"<sup>1</sup>.

Har bir davlat boshlig'i insonlar manfaatini ko'zlab siyosat yuritmog'i lozim. O'z xalqini o'ylamagan, xalqini kelajagi haqida qayg'urmagan inson oldiga oliy maqsadlar qo'ya olmaydi. Hayotda faqat o'zini o'ylab yashaydi. Bunday insonlarning irodasi ham faqat o'zining shaxsiy manfaatlariga xizmat qiladi.

Inson keng bilimli, o'z kasbini yaxshi egallagan tashkilotchi va ishchan, ammo ayni paytda xudbin, o'z manfaati yo'lida hech narsadan toymaydigan, bag'ritosh, zolim ham bo'lishi mumkin. Nafsga, hirsga berilganligi sababli bunday insonlar hayotning mohiyatini boylik ortirishda deb biladi.

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 72-bet

E`tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, “Yo`lni topibdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u, bog`ini surishtirmang” degan maqollar ham borligidan ko`z yumib bo`lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo`lmagan, ular ham ma`lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma`no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz. Lekin, bizning nazarimda, bunday gaplar odamlarning boylik va mol-dunyoni qanday yo`llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to`qib chiqarilgandek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o`z boyligini peshona teri to`kib, Ollah bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing`ir-qiyshiq, harom-xarish yo`llar bilan ortiryaptimi – bu go`yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak<sup>1</sup>.

O`z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo`lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo`lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinchi tomondan, bu dunyoda yengil-yelpi, har xil nopok yo`llarga berilib, insoniy burchini unutib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so`ngida armon va nadomatlarga botib o`z umrini tugatadi.

Dono xalqimiz, g`araz va hasad bilan yashaydigan, o`z shaxsiy manfaatiga o`zgalar hisobidan erishishni ma`qul ko`radigan, faqat o`zini o`ylaydigan kimsadan o`zi asrasin, deydi. Bag`ri keng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g`am-u tashvishi bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko`taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e`tibor topadi<sup>2</sup>.

Halol-pok va vijdonli insonlarning irodasi ham mustahkam bo`ladi. Chunki bu dunyoda halol va pok bo`lib yashashning o`zi qiyin. Bunday yashash insondan sabr-toqatli, chidamli bo`lishni, topganiga qanoat qilib yashashni talab etadi. Ko`pchilik bunday hayot kechirishni xohlamaydi. Bunday yashashga ularning iroda kuchi yetmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma`naviyat”, 2010. 21-bet.

<sup>2</sup> O`sha asar, 24-bet.

fikrlarni ta'kidlaydi: "Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi.

Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'no-mazmunini o'zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o'zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekam-u ko'st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi.

Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin?

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi"<sup>1</sup>.

Hamma xalqlarda u yoki bu ko'rinishda salom-alik bor, barcha xalqlar to'g'ri so'zni, rostgo'ylikni yoqtiradi, yolg'onni yomon ko'radi, qoralaydi. Hamma xalqlarda qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, jamoadoshlar bir-birini og'ir damlarda qo'llab-quvvatlagan, yordam bergan. Odamlar o'zaro birlashmaganda, bir birini qo'llab-quvvatlamaganda hayot qiyinchiliklariga, yovga, baloyu qazolarga qarshi birgalikda kurashmaganda, jamiyat yo halokatga uchrardi, yo o'ta jo'n, ibtidoiy ko'rinishda qolib ketardi. Oddiy axloqiy me'yorlar odamlarni birlashishga, birgalikda qiyinchiliklarni yengishga, bir birini qo'llab-

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2010. 20-bet

quvvatlashga undagan. Bu bilan odamlarning jamoaviylik tuyfusini, ijtimoiylashish darajasini, ma`naviyatini yuksaltirgan, qadriyatlarining tizimli poydevorini yaratgan. Birlashish, jamoaviylik tuyfusi va me`yorlari odamlarning moddiy va ma`naviy yaratuvchilik imkoniyatlari unumdorligini oshirgan.

Insonning eng muhim belgilaridan biri yaratuvchilikdir. Inson aql-zakovati, mehnati orqali tabiatni o`zgartiradi, yangilaydi, tabiatda yo`q narsalarni yaratadi. Inson iroda orqali yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo`ladi. Axloq esa insonda yaratuvchilikni tarbiyalaydi.

Insonning boshqa mavjudotlardan ajralib turuvchi asosiy xususiyatlaridan biri yaratuvchanlik faoliyati bilan shug`ullanishidir. Faqat insongina ma`lum bir narsalarni yaratish qobiliyatiga ega. Insonda yaratuvchanlik faoliyatining shakllanishida mehnatning o`rni beqiyosdir. Ma`lumki, mehnat aniq bir maqsadga yo`naltirilgan ongli va tartibli harakatlardan iborat bo`lib, jismoniy va aqliy kuch sarf etishini talab qiladi. Mehnatdan natija olish uchun uni ma`lum tartibda oxirigacha yetkazish va mehnatga bog`liq qiyinchiliklarni yengib o`ta bilish lozim. Mehnatning mana shu xususiyati odamning irodasini mustahkamlaydi, unda qunt bilan ishlay bilish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, dehqon ma`lum bir tartibga keltirilgan holda bog` yaratadi. Bu bog`dagi daraxtlarning o`sishi uchun tagini yumshatadi, suv quyadi, ortiqcha shoxlarini kesib turadi. Daraxtlar mevaga kirgach mevasini odamlarga ulashadi, qolgan qismini esa sotadi. Sotilgan mevalardan insonlar uchun yangi mahsulot ishlab chiqariladi. Shunday qilib, bir mahsulotning yaratilishi, ikkinchi bir mahsulotning yaralishiga turtki bo`ladi.

Insonlar qadimdan boshlab yaratuvchanlik faoliyati bilan shug`ullanib kelgan. Qadimgi davr odamlari yovvoyi hayvonlarni ovlash maqsadida ov qurollarini yaratganligi, bu sodda qurollarni takomillashtirib endi o`z dushmanlariga qarshi kurashish uchun mukammal qurollarni yaratgani bunga misoldir. Bu sodda qurollarni yaratish uchun o`zining tafakkurini, bilimini, bor kuchini qaratgan.

Jamiyatning taraqqiy etishi insonning yaratuvchilik faoliyatini tezlashtirishga olib keldi. Endi inson aql bovar qilmas narsalarni yarata boshladi. Bu nafaqat moddiy hayotda, balki ma`naviy hayotda ham ko`zga tashlana boshladi. Endilikda inson ijod bilan shug`illana boshladi. Insoniyatning ichki olamini o`rganuvchi ta`limotlar yaratila boshlandi. Bu ta`limotlar insonlarni bir-birini tushunish, bir-biriga yordam berish tuyg`ularining shakllanishiga olib keldi. Yozuvning yaratilishi esa insonlarga ajdodlardan qolgan meros bilan tanishish imkonini berdi. Har bir davrdagi voqealarni aks ettiruvchi tarixiy asarlar, kitoblar yaratildi. Bu asrlarni, kitoblarni o`qib insonlarning ma`naviy olami ham boyib borgan. O`sha davrning haqqoniy tarixini yaratish ijodkorlardan iroda kuchini talab qilgan. Chunki bu tarixiy asarlarda, kitoblarda o`sha davrdagi adolatsizliklar ham bayon etilgan. Ayrim yozuvchilar haqqoniy tarixni yoritib berishga qo`rqishgan. O`z jonini o`ylab bunday tarixni yaratishga ularning jur`atlari yetishmagan.

Yurtimizda bundan necha ming yillar oldin yaratilgan mashhur me`moriy yodgorliklar ham o`sha davr odamlarining metindek irodasining mahsulidir. Masalan, temuriylar davrida qurilgan mashhur Oqsaroy me`moriy yodgorligi necha ming yillardan beri o`zini buyukligini yo`qotgani yo`q. Bu saroy qanchadan qancha odamlarning iroda kuchi orqali barpo etilgan. Bunga o`xshash me`moriy inshootlarni yurtimizda ko`p uchratish mumkin.

Insoniyat nafaqat jamiyatga xizmat qiluvchi narsalarni yaratdi, shu bilan birga insoniyatning qirilib ketishiga sabab bo`luvchi qirg`in qurollarini ham yaratdi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlarini bunga misol qilib ko`rsatish mumkin. Bu qirg`in qurollari kimnidir mashaqqatli izlanishlari natijasida yaratilgan.

Inson barcha sohada yaratuvchanlik faoliyati bilan shug`illanadi. Iroda bu faoliyatni amalga oshirishda insonga yordam beradi. Faqat irodasi kuchli insongina yangiliklarga intilib yashaydi. Barcha sohada o`zgarishlar qilishni istaydi. Irodasi zaif inson yangiliklar qilishga qo`rqadi.



Mehnat qilish, bilim olish, ijod bilan shug'illanish, oila qurish, oilani boshqarish, bola-chaqani tarbiya qilish, umuman insonning hamma faoliyati yaratuvchilikdir.

## **2.2. Insonning ijtimoiy mo'ljallari, oliy maqsadlariga erishishda irodaning ahamiyati**

Iroda avvalo insonning muayyan maqsad tanlay bilish va unga erishish uchun o'zida kerakligicha ichki kuch hamda tashqi imkon topa olish qobiliyatidir<sup>1</sup>.

Iroda har bir kishida individual namoyon bo'ladi. Iroda insonning ijtimoiy mo'ljallari, oliy maqsadlariga erishishda ichki kuch sifatida unga yordam beradi. Inson o'zining oliy maqsadiga iroda orqali erishadi. Irodasi zaif inson oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi. Erishsa ham noto'g'ri yo'llar bilan erishadi. Noto'g'ri, nopok yo'llar bilan erishilgan maqsad irodasi kuchli insonning maqsadi emas. Chunki irodasi kuchli inson maqsadga faqat to'g'ri yo'l bilan erishadi. "Turli xatolikka yo'l qo'yish mumkin, lekin to'g'ri yo'l bitta. Shuning uchun to'g'ri yo'ldan ko'ra xato oson, mo'ljalga tegishdan ko'ra tegmaslik oson" – degan edi, yunon faylasufi Arastu.

Har bir inson baxtli hayot kechirish uchun intilib yashaydi. Insonning baxtga intilishi uning ijtimoiy mo'ljali bo'lsa, baxtga qanday bo'lmasin erishish uning maqsadidir. Inson maqsadni o'zining zaruratidan kelib chiqib qo'yadi, lekin bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini, vositalarini tanlash uning ijtimoiy mo'ljallariga bog'liq. Masalan, insonning do'kon ochib kichkina tijorat bilan shug'illanishi uchun unga ketadigan mablag'ni halol yo'l bilan topadimi yoki chayqovchilik qilib topadimi bu uning ijtimoiy mo'ljali hisoblanadi. Ayrimlar bolasi o'qimoqchi bo'lganda unga qarshilik qilib o'qib nima bo'larding mana qo'shnimizning farzandi yetti yil o'qib kelib hozir bolasini ham boqa olmaydi, undan ko'ra tijorat bilan shug'illan deb maslahat beradi. Bu yerda insonning ijtimoiy mo'ljali ma'naviy emas, balki iqtisodiy foyda olishga, nafsga va hirsga

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 67-bet

qaratilgan. Ijtimoiy mo`ljalning yaxshisi ham, yomoni ham iroda orqali amalga oshadi. Iroda ong bilan, ma`naviyat bilan qo`shilganda to`g`ri maqsadlarga xizmat qiladi. Irodani faqat aql boshqarmaydi. Chunki insonning maqsadga erishish yo`lida noto`g`ri mo`ljalni tanlashi ham uning aql-idrokidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham irodani ma`naviyat boshqaradi.

**Demak, ijtimoiy mo`ljal – insonning maqsadga erishish vositalarini, yo`llarini tanlash mo`ljolidir.**

Inson maqsadga erishishda qaysi ma`naviy qadriyatlarga intilib yashaydi. Uning irodasi o`ziga shior qilib olgan qaysi ma`naviy qadriyatlar (axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik) ni tanlaydi. Bu uning mo`ljaliga bog`liq. Shuning uchun ham biz ijtimoiy mo`ljal deganda qadriyatlar mo`ljalini tushunamiz. Ijtimoiy mo`ljal insonning maqsadga erishishida to`g`ri yo`lni ko`rsatadi, kompas vazifasini o`taydi.

Iroda esa insonning oliy maqsadlarga erishish yo`lida uchraydigan qiyinchiliklarni, sinovlarni yengib o`tishda, muvofaqiyatsizliklarga bardosh berishda yordam beradi.

Hozirgi kunda dunyoda qancha odam bo`lsa har birining o`z maqsadi bor. Bu dunyoda birorta inson maqsadsiz yashay olmaydi. Barcha inson o`z oldiga qo`ygan maqsadiga erishish uchun yashaydi. Deni Didro aytganidek: "Agar maqsadsiz bo`lsang hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo`lmasa buyuk ish qilolmaysan". Yuksak ma`naviyat sohibigina o`z oldiga buyuk maqsadlar qo`yadi. F.Shiller ta`biri bilan aytganda: "Maqsadi ulug`lashgan sari, odam ham ulug`lashib boradi".

Inson o`z oldiga oliy maqsadlarni qo`yar ekan, bu maqsadga erishish uchun o`zining his-tuyg`ularini shu maqsadga moslashtiradi. Irodasi kuchli inson maqsadga erishish uchun qo`lidan kelgancha harakat qiladi. Bu yo`lda kerak bo`lsa nimalardandir voz kechadi, yo`qotishlarga, og`ir sinovlarga dosh beradi. Insonning maqsadga erishish yo`lidagi qiyinchiliklarni yengib o`tishi, irodasining mustahkamlanishiga olib keladi.

Inson maqsadga erishish vositalarini, yo‘llarini erkin tanlaydi. Irodasi kuchli inson qancha qiyin bo‘lmasin maqsadga halol yo‘l bilan erishishni istaydi. Irodasi zaif inson esa qiyinchiliklardan qo‘rqib maqsadga erishishning oson yo‘lini tanlaydi. Har kim ham o‘z oldiga oliy maqsadlarni qo‘yishi mumkin, ammo unga eltuvchi halol va pok yo‘lni har kim ham tanlayvermaydi. Bu haqida yunon faylasufi Arastu quyidagicha fikr bildiradi: ”Har bir kishida va hammada muayyan maqsad bo‘ladi. Bu maqsadga erishish uchun ular bir yo‘lni ma‘qul ko‘rsalar, ikkinchisini rad etadilar”. Maqsadga erishishda insonning qaysi yo‘lni tanlashi uning irodasiga bog‘liq. Shuning uchun ham oliy maqsadga erishish har doim ham qiyin kechgan. Maqsadga erishish uchun inson sabr-toqatli, chidamli, jasur, tavakkalchi bo‘lmog‘i lozim. Masalan, Oliy o‘quv yurtiga kirishni o‘zi uchun oliy maqsad deb bilgan o‘quvchi unga kirish uchun imtihonlarga tayyorlanadi. Tayyorlanish jarayonida ko‘ngil ochar joylarga borishni o‘zi uchun taqiqlab, imtihonga oid kitoblar bilan tanishib chiqadi. Agarda imtihondan yiqilsa maqsadidan qaytmay keyingi yil kirish uchun yana tayyorlanadi. Doimiy xarajatlarini kamaytirib tayyorlov kurslariga qatnay boshlaydi. Maqsadiga erishish yo‘lida ortiqcha his-tuyg‘ularidan voz kechadi.

Hayotda shunday vaziyatlar bo‘ladiki, maqsadga erishishda inson ikki yo‘ldan birini tanlashiga to‘g‘ri keladi. Bunday holatda inson maqsadiga olib boruvchi ikki yo‘ldan birini tanlashni tavakkal qiladi. Insonning bu tavakkalchilikda tanlagan yo‘li maqsadiga olib borishi ham, olib bormasligi ham mumkin. Muhimi insonning o‘z maqsadi yo‘lida kurashishidir. Tadbirkorlik bilan shug‘illanuvchi insonlarning ko‘pchiligi tavakkalchilik asosida ish boshlaydi. Ko‘pchiligi o‘z maqsadlariga erishadi ham. Tavakkalchilik – bu bilimsizlik emas, aksincha insonning o‘z kuchiga ishonishi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, kezi kelganda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishidir. Jasur, o‘z kuchiga ishongan insonlar tavakkal ish tutadilar. O‘z kuchiga ishonmagan, qo‘rqoq, jur‘atsiz insonlar tavakkal qilishdan qo‘rqadi. Chunki bunday insonlar biror ish boshlamoqchi bo‘lganida bu ishning foyda keltiradigan tomonini emas, mabodo ishi o‘xshamasa ziyon tomonini ko‘proq o‘ylab tavakkalchilikka qo‘l

urmaydilar. Shuning uchun ham bunday insonlar biror ish qilishdan oldin ko'proq o'ylaydi. O'z kuchiga ishonmaganligi sababli yangi ish bilan shug'llana olmaydi. Bunday holatlarning oldini olish uchun insonda iroda kuchini shakllantirish zarur. Masalan, barchamizga ma'lum bo'lgan Shiroq afsonasini olaylik. O'z ona Vatanini forslar hujumidan saqlab qolishni o'zi uchun oliy maqsad deb bilgan Shiroq forslar qo'shinini qirib tashlash maqsadida ularga qarshi hiyla ishlatadi. Hiylasiga ularni ishontirish uchun tavakkal qilib o'zining quloq-burnini kesib tashlaydi va shu hiylasi orqali ularni ishontirib butun fors qo'shinini sahroda qirilib ketishiga sababchi bo'ladi. Uning bu tavakkalchiligi o'z yurtini dushmanlar hujumidan saqlab qolishiga olib keladi. Agarda uning o'rnida boshqa inson bo'lganida irodasizlik qilib o'z jonini o'ylab yurtining dushmanlar tomonidan bosib olinishiga jim qarab turgan bo'lar edi. Ezgu maqsadga ham, yovuz maqsadga ham inson o'zining irodasi orqali erishadi. Shuning uchun ham ezgulikka, rivojlanishga qaratilgan irodagina ma'naviyatning tarkibiy qismiga kiradi.

Ayrim insonlar o'z oldilariga oliy maqsadlarni qo'yadi, ammo unga erishishdagi qiyinchililarga dosh berolmay o'z maqsadlaridan qaytadi. Yana shunday insonlar borki, maqsadiga erishish uchun hattoki o'z jonini ham berishga tayyor bo'ladi.

Xalq kelajagini o'ylab o'zining oldiga oliy maqsadlarni qo'ygan va shu maqsad yo'lida kurashgan insonlarni tarixda ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, mustabid tuzum davrida jadidchilik harakati namoyondalari mamlakatni modernizatsiya qilish, aholining madaniy saviyasini oshirish, mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga xalal berib kelayotgan taqiqlarni bartaraf etishni o'zlari uchun oliy maqsad deb bilganlar va unga erishish uchun barchani mana shu oliy maqsad atrofida birlashtirganlar. Mustamlakachilarning tazyig'iga qaramasdan jadidlar oliy maqsadlarini amalga oshirishdan qaytmaganlar.

Mustabid tuzum davrida xalqimiz tilini, o'zligini yo'qotmadi. Mustaqillikka erishish uchun kurashdi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek:

“Uzoqqa bormasdan, xalqimiz o‘z boshidan kechirgan mustamlaka davrini bir ko‘z oldimizga keltiraylik. Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma‘nodagi qora kunlari bo‘lmish o‘sha zamonda bir paytlar o‘zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilm-u madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og‘ir mashaqqatlarga duch bo‘lganini yaxshi bilamiz.

Lekin ana shunday dahshatli davrda ham har qanday zulm va istibdodlarga qaramasdan, xalqimiz o‘zini, o‘zligini yo‘qotmadi. Tilini va dinini, iymon-e‘tiqodini saqlab qoldi. Nohaqlik va zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg‘usi bilan yashagan haqiqiy vatanparvar insonlar yetishib chiqdi. Xalqimizning asrlar sinovida yanada kuchayib, toblanib borgan mustahkam irodasi, iymon-e‘tiqodi nafaqat qadimiy ma‘naviyatimiz, balki milliy o‘zligimizni saqlab qolishga asos bo‘ldi.

Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo‘lga kiritish, milliy tiklanish, o‘z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo‘ladimi, madaniyat, ta‘lim-tarbiya va ilm-fan bo‘ladimi – o‘zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro‘yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko‘ramiz”<sup>1</sup>.

Mustaqillikning o‘tgan qisqa davri mobaynida mamlakatimizda olib borilgan islohotlar jarayonida inson ongini yangilash va uni yangi jamiyat hayotiga tayyorlash borasida ham muhim ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: “Bugun biz tarixiy davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamoyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz” – degan edi. Avvalo, tarixan qisqa bu davr mobaynida davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma‘naviyat”, 2010. 25-26-betlar

borasida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo'lganligi bugun hech kimga sir emas.

Bunda avvalo, mamlakatni isloh etish strategiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi barqaror taraqqiyotimizni uzoq yillarga ta'minladi. Buni amalga oshirish uchun Yurtboshimiz sa'y-harakatlari bilan mustaqil rivojlanishning dastlabki davrida milliy davlatchilik va barqaror taraqqiyot poydevorining barpo etilishi asos bo'lib xizmat qildi.

Istiqlol – o'z taqdiriga egalik qilish huquqi, ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analariga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlarini yo'lida foydalanish imkoniyati ekanligi bugungi kunda barchamiz angelayotgan haqiqatdir. Mana shu sa'y-harakatlar tufayli bugun mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egalladi<sup>1</sup>.

Bir narsani esdan chiqarmaslik kerak. Har qanday maqsad ham oliy maqsad sifatida baholanavermaydi. Maqsadning oliy bo'lishi uchun o'zida Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi kabi g'oyalarni mujassam etishi zarur. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun xizmat qilish bugungi kunda bizning oliy maqsadimizdir.

Yurt tinchligi – bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan<sup>2</sup>. Qachonki yurt tinch bo'lsagina inson qolgan oliy maqsadlarini amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ham barcha xalqlar o'z yurtini tinchligini saqlash uchun bor kuch-irodasi bilan kurashganlar. Chunki yurt tinchligini saqlash totuvlik, bunyodkorlik va kelajakka ishonch bilan intilish uchun asos bo'lmoqda.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi.

---

<sup>1</sup> To'rayev Sh. Milliy g'oya va ma'naviyat. Risola. - T., "Ma'naviyat". 2015. 4-bet

<sup>2</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.. Risola. - T., "O'zbekiston", 2000. 52-bet

Lekin, afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo‘lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o‘zlarining g‘arazli maqsadlari, nafs balosi yo‘lida bashariyatni hamisha nizo-advovat, urush va qirg‘inlar domiga tortib keladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, keyingi besh ming yil mobaynida odamzod o‘n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshdan kechirganini ko‘ramiz. Bu – urush va tinchlik, xavfsizlikni ta‘minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo‘lib kelayotganidan dalolatdir<sup>1</sup>.

O‘zining halol mehnati evaziga boylik ortirishdan ko‘ra boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarga ega bo‘lishni o‘zi uchun afzal ko‘ruvchi xalqlar hali ham mavjud. Chunki bunday xalqlar uchun o‘zi qiynalib moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratishdan ko‘ra, boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan boyliklarga egalik qilish oson. Holbuki, hech bir xalq o‘zining iroda kuchi bilan yaratgan boyliklarini osonlikcha birovga berib qo‘ymaydi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo‘lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko‘hna zaminimiz gullab-yashnagan.

Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jami-yatni butkul tanazzul botqog‘iga botiradi. Yigirma yildan buyon o‘zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlardan biriga aylanib qolgan Afg‘oniston – buning yaqqol dalili.

Bu mamlakat hududining xavf-xatar o‘chog‘iga aylanib qolgani yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikka, taraqqiyot yo‘lidagi ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Bu – dunyoda yalpi tinchlik va barqarorlikka erishish uchun, avvalo, har bir mamlakat va har bir mintaqada

---

<sup>1</sup> Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.. Risola. - T., "O‘zbekiston", 2000. 53-bet

tinchlik-barqarorlikni ta`minlash zarur, degan qarashning bugungi kunda g`oyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boyluk sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasllar ham ko`p mehnat va mashaqqat evaziga qo`lga kiritilgan mana shu bebaho ne`matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqlol yo`lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib bo`la oladi.

Yurt tinchligiga o`z-o`zidan erishib bo`lmaydi, albatta. Yurt tinchligi yo`lida qanchadan-qancha ajdodlarimizning halok bo`lganligini tarixdan bilamiz. O`zining metindek irodasi bilan dushmanga qarshi kurashgan, hayotning og`ir damlarida ham o`zi tanlagan yo`ldan qaytmagan, bu yo`lda hattoki, o`zining eng yaqin odamlaridan ajragan ajdodlarimizning bugungi kunda bizning tinchoyishda yashashimizda hissasi beqiyos.

Yurt tinchligi – Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog`liq-dir. Birovga qaram bo`lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Bu barchamizning eng oliy maqsadimiz bo`lmog`i kerak.

Yuksak ma`naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g`oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo`lgan bu g`oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo`lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Vatan ravnaqi deganda shu muqaddas yurtimizda yashayotgan har bir kishining Vatan uchun biror ish qilishini, o`z kasbini sevishini va vatanparvarlikda namuna bo`lishini tushunamiz. Binobarin, har bir ezgu harakatimiz Vatan ravnaqiga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.:”O`zbekiston”, 2000. 54-bet.

<sup>2</sup> O`sha joyda.



Vatani bor odamning gʻurur-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq boʻladi. Togʻdek tayanchi – Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor boʻladi.

Vatan uchun kurashish, vatanni asrab-avaylash har doim ham har bir insonning oliy maqsadi boʻlib kelgan. Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bogʻliq. Bu esa har bir yurtdoshimizni oʻzining maʼnaviy kamoloti uchun yuksak masʼuliyatni his etishga, oʻz manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uygʻunlashtirib yashashga daʼvat etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning maʼnaviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi boʻladi. Vatan ravnaqi uchun qilinayotgan bu kabi ishlarning barchasiga xalqimiz oʻzining yuksak bilimi, intiluvchanligi va iroda kuchi orqali erishmoqda.

Bu oʻzgarishlar jarayonining ustuvor xususiyati – xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyodkorlik salohiyatini toʻla yuzaga chiqarish, iqtisodiyatni ilgʻor texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yoshlarimizni sogʻlom va barkamol qilib voyaga yetkazish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Bu dunyoda har bir odam toʻq va badavlat hayot kechirish, el-yurt uchun munosib farzand tarbiyalash, ularga bilim berish, uyli-joyli qilish, ularning baxt-u kamolini koʻrish orzusi bilan yashaydi<sup>2</sup>. Bunga erishish uchun barcha qiyinchiliklarga chidaydi. Oʻzi yemasa ham bolasiga yediradi. Oʻzi erisha olmagan maqsadlarga bolasi orqali erishishni xohlaydi. Kelajakda bolam qiynalmasin deb oʻqishi uchun bor shart-sharoitni yaratib beradi. Maʼlum bir kasbni egallashiga yordam beradi. Hayotda shunday insonlar borki, farzandi tugʻilmasdan turib oldiga oliy maqsadlarni qoʻyadi. Farzand oldidagi masʼuliyatni his qilib, farzandi tugʻilgandan soʻng qiynalmay katta boʻlishi uchun tinim bilmay ishlaydi. Hattoki, kasbini ham oʻzgartirishga toʻgʻri keladi. Yoki qoʻshimcha ish

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Risola. - T., "Oʻzbekiston", 2000. 52-bet.

<sup>2</sup> Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. - T., "Maʼnaviyat", 2010. 74-bet

bilan shugʻillanadi. Masʼuliyatsiz inson esa hayotiga hech qanday oʻzgarish kiritmaydi. Odatda bunday insonlarning hayoti oldin qanday boʻlsa keyin ham shunday davom etadi. Irodasi kuchli inson masʼuliyatdan qoʻrqmaydi. Bunday insonlar boʻlayotgan hayotiy voqealarga befarq qarab turmasdan nafaqat oʻzining hayotini, balki boshqalarning hayotini ham oʻzgartirishga harakat qiladi. Qilgan harakati natijasiz chiqsa ham harakat qilishdan toʻxtamaydi.

Insonning oʻz oldiga qoʻygan maqsadi qanchalik ezgu boʻlsa va unga erishish qiyinchilik bilan kechsa irodasi ham shunchalik mustahkamlanib boradi. Inson maqsadiga erishish uchun oʻqiydi, izlanadi, oʻziga yoqmaydigan ishlar bilan shugʻillanadi, ichki his-tuygʻulariga qarshi kurashadi.

Inson oʻzining oliy maqsadiga erishish uchun, avvalo, oʻzidagi ishonchsizlikni va ichki qoʻrquvni yenga bilishi lozim. Chunki maqsadiga erishishga nisbatan ishonch boʻlmasa, inson harakat qilishdan toʻxtaydi. Harakat qilmasdan turib harakatining besamar yakun topishini taxmin qilish maqsadning yakun topishiga olib keladi. Maqsadga erishishda inson maqsadga erisha olamanmi yoki yoʻqmi deb koʻp oʻylaydi. Maqsadga erisha olmayman degan qoʻrquvni yengan inson, albatta, maqsadiga erishadi.

Bizning eng oliy maqsadlarimizdan yana biri xalq farovonligiga erishish-dir. Xalq farovonligi har birimizning mehnatimiz evaziga yuzaga keladi. Bunda odamlarning tinch-totuv yashashi, halol mehnat bilan boylikka ega boʻlishi va eng zaruriy kasb-hunarni egallashi muhimdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi – xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Yaʼni islohot – islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday oʻzgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir<sup>1</sup>.

Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohot-lar mohiyatini anglab yetishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, yerga

---

<sup>1</sup> Milliy istiqloq gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Risola. - T., "Oʻzbekiston", 2000. 55-bet

munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farovon turmush asosi – erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdir. Shuning uchun xalqimizda mulkka egalik hissini tarbiyalash, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy mafkuramiz vazifalariga kiradi<sup>1</sup>.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy zaminidir.

O'zbekiston xalqidek mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan xalq o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir<sup>2</sup>. Bugungi kungacha mavjud bo'lgan barcha yutuqlarga xalqimiz o'zining halol mehnati orqali erishgan. Zero, Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi keng qamrovli oliy maqsad bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi: yurtparvarlik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, taraqqiyot, xalqparvarlik va farovonlik. Diqqat qilinsa, bular barcha uchun muhim sifat, fazilat va tamoyillardir<sup>3</sup>.

## **II bob bo'yicha xulosa**

1. Iroda insonning o'z oldiga muayyan maqsad qo'ya bilish va bu maqsadga erishishning yo'llari va vositalarini erkin tanlay olish salohiyatidir. Iroda erkin tanlashning yuzaga chiqishi sifatida aslida axloq hodisasidir. Shu sababdan antik davr olimlari etikaning predmeti – iroda, deb hisoblaganlar. Inson har qanday qaror qabul qilishdan avval uning oqibatlari, odamlarga va jamoaga (jamiyatga) ziyon yetkazmasligi to'g'risida o'ylashi kerak.

2. Irodaning axloqiyligi deganda biz, odatda, kishi oldiga qanday maqsadlar qo'yganligini, bu maqsadlarga qanday vositalar yordami bilan erishilishini, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli tug'ilishini, ma'lum bir qarorga kelishda kishi qanday tamoyillarga tayanishini nazarda tutamiz. Ba'zan inson oldiga oliy maqsadlar qo'yishi mumkin, ammo bu maqsadga erishishda

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Risola. - T.: "O'zbekiston", 2000. 55-bet

<sup>2</sup> O'sha joyda, 55-bet.

<sup>3</sup> To'rayev Sh. Milliy g'oya va ma'naviyat. Risola. - T.: "Ma'naviyat". 2015. 5-bet

axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan usul va vositalardan foydalanishi ham mumkin.

3. Insonning eng muhim belgilaridan biri yaratuvchilikdir. Inson aql-zakovati, mehnati orqali tabiatni o'zgartiradi, yangilaydi, tabiatda yo'q narsalarni yaratadi. Inson iroda orqali yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'ladi. Axloq esa insonda yaratuvchilikni tarbiyalaydi.

4. Har bir inson baxtli hayot kechirish uchun intilib yashaydi. Insonning baxtga intilishi uning ijtimoiy mo'ljali bo'lsa, baxtga qanday bo'lmasin erishish uning maqsadidir. Inson maqsadni o'zining zaruratidan kelib chiqib qo'yadi, lekin bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini, vositalarini tanlash uning ijtimoiy mo'ljallariga bog'liq. Ijtimoiy mo'ljalning yaxshisi ham, yomoni ham iroda orqali amalga oshadi. Iroda ong bilan, ma'naviyat bilan qo'shilganda to'g'ri maqsadlarga xizmat qiladi. Irodani faqat aql boshqarmaydi. Chunki insonning maqsadga erishish yo'lida noto'g'ri mo'ljalni tanlashi ham uning aql-idrokidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham irodani ma'naviyat boshqaradi.

5. Inson o'z oldiga oliy maqsadlarni qo'yar ekan, bu maqsadga erishish uchun o'zining his-tuyg'ularini shu maqsadga moslashtiradi. Irodasi kuchli inson maqsadga erishish uchun qo'lidan kelgancha harakat qiladi. Bu yo'lda kerak bo'lsa nimalardandir voz kechadi, yo'qotishlarga, og'ir sinovlarga dosh beradi. Insonning maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishi, irodasining mustahkamlanishiga olib keladi.

6. Bir narsani esdan chiqarmaslik kerakki, har qanday maqsad ham oliy maqsad sifatida baholanavermaydi. Maqsadning oliy bo'lishi uchun o'zida Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi kabi g'oyalarni mujassam etishi zarur. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun xizmat qilish bugungi kunda bizning oliy maqsadimizdir.

### III BOB. IRODA VA MA`NAVIY YUKSALISH

#### 3.1. Ma`naviy yuksalish omillari orasida irodaning tutgan o`rni

Ma`naviyatni yuksaltiruvchi omillar iroda orqali o`zining ta`sirchanlik xususiyatiga ega bo`ladi. Ma`naviyatni yuksalishiga ta`sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Bu omillardan biri moddiy-iqtisodiy omildir. A.Erkayev ta`kidlaganidek: “Har qanday siyosiy tuzum, inson, davlat va jamiyat hayoti o`zining moddiy-iqtisodiy poydevoriga, asoslariga ega. Ko`pincha aynan iqtisodiy omillar, moddiy manfaatlar ijtimoiy va siyosiy munosabatlarga, hatto mamlakatlarning o`zaro aloqalariga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadi. Siyosiy jihatdan qo`lga kiritilgan mustaqillikni iqtisodiy jihatdan musatahkamlash zarur”<sup>1</sup>.

Aholining moddiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash orqali ma`naviyatini yuksaltirishga erishishimiz mumkin. Kambag`al, qorni och odam bilim olgisi, kitob o`qigisi kelmaydi. Bunday odam hayotda faqat qorin to`yg`ozish g`ami bilan yashaydi. Bilim olishga vaqt ham, imkon ham topolmaydi. Sobiq Ittifoq davrida bunday insonlarni ko`plab uchratish mumkin edi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov to`g`ri ta`kidlaganidek: “U paytlar shunday vaziyatlar ham bo`lardiki, bir marta to`yib ovqatlanishning o`zi baxt hisoblanardi. Men yoshligimda bularning barchasini boshimdan o`tkazganman. Hatto, shunday bo`lganki, maktabda bir necha bor dars payti ochlikdan holsizlanib uxlab qolganman. Bunday holatlar o`sha zamonlarni ko`rgan odamlarning ko`pchiligiga begona bo`lmasa kerak. Men aniq bilaman, sizlar ham yoshligingizda ayni shunday qiyinchiliklarni boshingizdan o`tkazgansiz. Ya`ni hammamizning taqdirimiz o`xshash bo`lgan. O`sha davrlarda ertalab och-nahor turib, darsga chopardik, kuch-quvvat ham shunga yarasha bo`lardi”<sup>2</sup>. Qashshoq yashaydigan jamiyat ilm-fanini ham, san`atini ham, madaniyatini ham rivojlantira olmaydi. Barcha shart-sharoitlarga ega, bekamu-ko`st yashaydigan

<sup>1</sup> Erkayev A. O`zbekiston yo`li. - T., “Ma`naviyat”, 2011. 151-bet.

<sup>2</sup> Islom Karimov. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - T., “O`zbekiston”, 2015. 19-bet.

odam hayotdan mamnun bo'lib yashaydi. Bilim olishga intiladi. Bo'sh vaqtda kitob mutolaa qiladi. San`atga oshufta odam bo'lsa, yangi san`at asari yaratishga intiladi. Bunday insonlar qayerda bo'lmasin yurtidan faxrlanib yashaydi.

Mustaqillikdan keyin mamlakatimizda insonlarning munosib turmush kechirishi va xalq farovonligini oshirish uchun ishlab chiqarishga, yangi texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor berildi. Bu esa insonlarni ishlab chiqarish bilan shug'illanishga imkoniyat yaratdi. Ishlab chiqarish bilan shug'illanish, yangi texnologiyalarni ishlata bilish insondan ma'lum sohadagi bilimlarni egallashni talab etdi. Chunki bilimi, savodi yo'q odam ishlab chiqarish bilan shug'illana olmas edi. Nafaqat ishlab chiqarishda, balki jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sohadagi ishlarni boshqarishda bizga savodli insonlar kerak edi. Shuning uchun insonlarning savodxonligini oshirish masalasi hal etildi. Yurtimizda yuksak malakali, o'z ishini yaxshi biladigan kadrlar yetishib chiqdi.

Bir narsani unutmasligimiz kerak iqtisodiyot ma'naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma'naviyatga nisbatan "buyurtmachi" vazifasini o'taydi. Masalan, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabilar ilm-fanni, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining murakkablashuviga, ilm talabligining oshishiga yarasha ishchi va mutaxassislarda yangi mehnat ko'nikmalari hosil bo'lishini, ularning malakasi muttasil o'sib borishini taqozo etadi. Bu esa jamiyatda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, umuman tarbiya va ta'lim tizimi rivojlanishiga, ma'naviy-psixologik muhit o'zgarishiga, ishlab chiqarishda va turmushda ratsionalizatorlik, ixtirochilik, texnik ijodkorlikka moyillik kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, turli tovarlarni, mahsulotlarni va xizmat turlarini xaridorlarga yetkazish ehtiyoji har xil ko'rgazmalar, shou tomoshalar, konkurslar, lotoreyalar va nihoyat reklama-axborot industriasini vujudga keltirdi<sup>1</sup>. Iqtisodiyot o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun insonda kuchli bilim va iroda kuchi

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. - T., "Ma'naviyat", 2009. 270-271-betlar.

zarur. Mamlakatda yuzaga keladigan har qanday iqtisodiy masalalarni bilimli va irodali insonlar hal etadi. Agarda iqtisodiyotni yuksaltirishda noto'g'ri yo'l tanlansa mamlakat inqirozga yuz tutishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish bo'lmasa, xalq turmush farovonligi yuksalmasa, ma'naviyatning ko'p sohalari ham rivojlanmaydi: xalq ta'limi, san'at, ommaviy axborot vositalari, matbaachilik, ilm-fanning moddiy bazasi nochor ahvolga tushib qoladi, jamiyatning ijodiy izlanishlari susayadi. Turli shakllardagi mafkuraviy murosasizlik, mutaassiblik tarqalishi uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyot rivojlanishi uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi, chunki iqtisodiyotning yangi texnologiyalarga, yangi g'oyalarga bo'lgan ehtiyojlari yetarlicha qondirilmaydi. Iqtisodiy tafakkur davr talabidan ortda qola boshlaydi. Insonparvarlik, halollik yetarlicha hisobga olinmagan joyda ish beruvchi bilan ishga yollanuvchi o'rtasida ijtimoiy hamkorlik emas, qarama-qarshilik vujudga keladi<sup>1</sup>.

Barchamizga ma'lumki, Sovet Ittifoqi davrida mulkchilikning faqat bir shakli - davlat mulki bor edi. Xususiy mulkchilik yo'q edi. Fuqarolar mulkdor bo'lish huquqidan mahrum edilar. Davlat tasarrufidagi zavod va fabrikalarda ishlovchi ishchilarga mehnatiga qarab haq to'lanmas edi. Ular qo'shimcha daromad keltiradigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanishga qo'rqishar edi.

Ko'pchilikka ayonki, 90-yillarning bosharida aksariyat odamlar bizda ham kimningdir xususiy zavodi yoki fermasi u yoqda tursin, kichkinagina do'koni bo'lishi mumkinligini ham tasvvur eta olmas, tasavvur etgan taqdirda ham o'ziga qabul qila olmas edi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo'lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo'lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'illanish bizga begona bo'lgan tushunchalar sifatida baholanar edi. Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o'zgarib, u hayotimizdan qanchalar chuqur joy olib borayotganiga barchamiz guvohmiz va bu holat hech kimni hayron qoldirmaydi<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitut-

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. - T., "Ma'naviyat", 2009, 282-bet.

<sup>2</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T., "Ma'naviyat", 2010. 69-bet.

siyasining 53-moddasi ko'ra: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin"<sup>1</sup>.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish boshlandi. Yurtimizdagi zavodlar, fabrikalar, korxonalar va yer uchastkalari odamlarga xususiylashtirib berildi. Oldin mulk davlatniki bo'lganligi bois mehnat jamoasi qancha ko'p ishlasalar ham mulklari ko'paymas, moddiy turmushi eski holicha qolaverardi. Endi esa o'zining xususiy mulkini ko'paytirish imkoniga ega bo'ldilar. Masalan, oldinlari dehqon tinim bilmay yerga ishlab hosilni yetishtirardi. Hosil pishganda dehqonga qoldirilmasdan davlat tomonidan olib ketilar edi. Hozir esa yer fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Fermer yetishtirgan hosilni belgilangan miqdorini davlatga, qolgan qismini o'ziga olib qoladi.

Bugungi kunda yurtimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, xohlagan kishi tadbirkorlik bilan shig'illanishi, fermer bo'lishi mumkin. Bu ishlar bilan shug'illanish uchun insonning o'zida qiziqish, qobiliyat va albatta iroda kuchi bo'lsa kifoya.

Kishilik tarixi, bugun dunyodagi ko'pgina taraqqiy topgan, barqaror va badavlat yashab kelayotgan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, avvalo o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs va bunday shaxslardan tashkil topgan toifa o'zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o'z yaqinlari va muhtoj insonlarga beg'araz yordam ko'rsatish, el-yurt uchun xizmat qiladigan maktab, kasalxona, madaniyat va sport maskanlari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-modda. - T., "O'zbekiston", 2014.



barpo etish, bir soʻz bilan aytadigan boʻlsak, davlat va jamiyat zimmasidagi koʻpgina vazifalarni amalga oshirishga oʻz hissasini qoʻshadi<sup>1</sup>.

Inson moddiy-iqtisodiy farovonlikka faqat oʻzining mehnati va irodasi orqali erishadi. Irodali inson nafaqat oilasi, balki yaqinlarining ham yaxshi yashashi haqida qaygʻuradi. Qoʻlidan kelgancha ularga yordam beradi. Irodasiz inson esa masʼuliyatsizligi sababli oilaviy xarajatlarni oʻz zimmasiga olishdan qoʻrqadi. Farzandlarini oʻqishga emas, ishlashga undaydi. Oilasi uchun oʻzi pul topib, farzanlarini oʻqitishdan koʻra, farzanlari topib kelgan pul orqasidan yashashni xohlaydi. Bunday insonlar koʻpincha faqirona kun kechiradi.

Maʼnaviyatning yuksalishiga siyosiy omillar ham taʼsir koʻrsatadi. Davlat notoʻgʻri siyosat yuritsa, zoʻravonlik, qatagʻonchilik siyosati olib borsa, ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanmasdan davlatning hukmron mafkurasi oʻrnatilsa maʼnaviyat rivojlanmaydi. Stalin, Gitler davridagidek oʻzgacha fikrlovchi odamlar qatagʻon qilinsa, insonlar erkin fikrlay olmay, oʻzini fikrini aytishga qoʻrqib qoladi. Faqat buyruq asosida harakat qiladi. Insonlar oʻrtasidagi maʼnaviy muhit buziladi. Ular bir-biriga nisbatan ishonmay qoʻyadi. Bir birini ustidan shikoyat qilib, yozishmalar olib boradi. Davlatga nisbatan ishonchsizlik paydo boʻladi.

Agar davlat erkin demokratik siyosat yuritsa, insonlarning siyosiy faoliyat bilan shugʻillanishiga imkoniyat yaratib berilsa, fuqarolar davlatning olib borayotgan siyosatiga nisbatan oʻzining mustaqil fikrini ayta olsa maʼnaviyat ham yuksalib boradi.

Davlatda qonun ustuvor boʻlmasa, adolatsiz insonlar jazolanmasa firibgarlik, oʻgʻrilik, jinoyatchilik rivojlanadi. Firibgarlik, oʻgʻrilik, jinoyatchilik rivojlangan mamlakatda maʼnaviyat rivojlanmaydi. Bunday mamlakat aholisining psixologiyasiga ham putur yetadi.

Mamlakatda qonun ustuvor boʻlsa, millatchilikka, diniy ayrmachilikka yoʻl qoʻyilmasa, insonlarning huquqlari, erkinliklari qonun bilan kafolatlangan boʻlsa maʼnaviyat ham yuksaladi. Aybdor shaxs aybiga yarasha jazolanmasa bu

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. - T., “Maʼnaviyat”, 2010. 70-bet.

hol boshqalarning men ham yomon ishlar bilan shugʻillansam boʻladi, meni ham jazolamaydi degan fikrni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham mamlakatda qonun ustuvorligi oʻrnatilishi lozim.

Haqiqiy mustaqil mamlakatda fuqarolarning har tomonlama mustaqil boʻlishi qonun bilan kafolatlangan boʻladi. Odamlarga shunday shart-sharoit yaratib berish kerakki, toki u emin-erkin ijod qilishi, oʻzi xohlagan mehnat faoliyati bilan shugʻillanishi, xohlagan diniga eʼtiqod qilish yoki qilmaslik erkinligi va soʻz, matbuot erkinligiga ega boʻlsin. Oʻzbekiston Respublikasida bunday erkinliklar konstitutsiyada belgilab qoʻyilgan va u hayotda oʻz aksini topgan.

Huquqiy demokratik davlatlarda maʼnaviyat rivojlanadi. Huquqiy demokratik davlat xalq taqdirini birinchi oʻringa qoʻyadi. Uning oʻtmish madaniyati, tajribasi va kelajagini oʻzaro bogʻliq holda tashkil etadiki, xalq oʻz tomirlaridan uzilib qolmaydi. Shu maqsadda Oʻzbekistonda yashayotgan barcha xalq, millat va elatlar tarixi, urf-odat va anʼanalari, tili va madaniyati bugungi kunda amal qilmoqda. Hech bir xalqning madaniyati kamsitilmaydi va tahqirlanmaydi. Turli millat vakillari oʻrtasida tenglik, ahillik va oʻzaro baxam-jihatlikni qaror toptirish huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biridir.

Insonning qonunlarga amal qilib yashashi, noqonuniy ishlar bilan shugʻillanmasligi uning maʼnaviyatiga bogʻliq. Maʼnaviyati zaif inson nopok yoʻllar bilan boylik toʻplaydi. Oilasini xarom yoʻl bilan topgan pul bilan boqadi, noqonuniy ishlar bilan shugʻillanib jamiyatga zarar yetkazadi. Huquq maʼnaviyatni yuksaltiradi. Iroda esa huquqni yuzaga chiqaruvchi omildir

Maʼnaviyatni yuksaltiruvchi yana bir muhim hayotiy omil – bu taʼlim-tarbiya tizimidir.

Maʼlumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik boʻlmish ilm-u maʼrifat, taʼlim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta`lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya`ni xalq ma`naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o`zgartirmasdan turib, ma`naviyatni rivojlantirib bo`lmaydi<sup>1</sup>.

Kelajakda yoshlarimizning qanday inson bo`lib voyaga yetishi ta`lim-tarbiyaga bog`liq. Biz ta`lim-tarbiya tizimini rivojlantirmasdan turib ko`zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Buning uchun ta`lim muassasalarini rivojlantirishimiz, unda faoliyat ko`rsatuvchi ustoz va murabbiylarning bilim saviyasini ko`tarishimiz lozim. Masalan, ta`lim muassasasi xarob ahvolda bo`lsa, zamonaviy jihozlar bilan ta`minlanmagan bo`lsa bola bunday joyda ta`lim olgisi kelmaydi. Yoki ta`lim muassasasi zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan bo`lsa-yu, ammo unda ta`lim beruvchi ustoz va murabbiylarning bilim saviyasi past bo`lsa, bunday vaziyatda ham o`quvchining o`qishga nisbatan munosabati o`zgaradi. Shuning uchun ham bunday holatlarning oldini olish maqsadida hozirgi kunda boshqa sohalar kabi ta`lim sohasida ham keng islohotlar olib borilmoqda. Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo`lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta`limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo`lgan o`n mingga yaqin umumta`lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta`lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o`qituvchilarning mehnatini moddiy va ma`naviy rag`batlantirish bo`yicha katta ishlar qilinmoqda□. Maktabda ta`lim rivojlansa, tarbiya yaxshilansa, faqat texnikaviy bilim emas, ijtimoiy-gumanitar bilimlar berilsa, ta`lim tarbiyadan ajratilmasdan olib borilsa, jamiyatda ma`naviy yuksalish yuz beradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek: **“Talimni tarbiyadan, tarbiyani esa ta`limdan ajratib bo`lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”**<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma`naviyat”, 2010. 60-bet.

<sup>2</sup> O`sha asar, 62-bet.

Prezidentimiz fikrini davom ettirib, bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma`noli soʻzlarini eslayman. Buyuk ma`rifatparvar bobomizning bu soʻzlari oʻtgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb boʻlgan boʻlsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham koʻra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Oʻquvchiga ta`lim va tarbiyani birgalikda berish zarur. Aks holda inson olgan bilimidan notoʻgʻri maqsadlarda foydalanishi mumkin. Bilimi yuqori boʻlib oʻzi shavqatsiz, ochkoʻz, nafs botqogʻiga botgan inson boʻlishi ham mumkin. Masalan, fashistlar orasida ham juda bilimli, fanlarni yaxshi egallaganlari talaygina edi. Lekin ular oʻz bilimlaridan insonlar va ularning ma`naviyatini, hayotini yuksaklikka koʻtarish uchun emas, ularni yerga urib chilparchin qilish yoʻlida foydalandilar. Ularni bilimdon odam, deyish mumkin, lekin ma`naviyatli insonlar deyish mumkin emas. Aytish mumkinki, ilm va bilim insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uygʻunlashgandagina, yuksak ma`naviyatga asos boʻladi.

Yoshlarga bilim berganda, ta`lim jarayonini tarbiya bilan uygʻun olib borish yuksak ma`naviyatni shakllantirishdagi bosh yoʻnalishdir. Ma`naviyat tarkibidagi muhim tarkibiy qismlardan biri axloqdir. U tom ma`noda inson bilimlarini, aql-zakovatini, kuch-quvvatini, butun faoliyatini yoʻnaltiruvchi kuchdir. Aslida axloq faqat xulqni emas, tafakkurni, aqlni va faoliyatni tartibga solibgina qolmay, muayyan tomonga, maqsadga yoʻnaltirib ham turadi. Kishining xulqi, faoliyati ma`lum axloqiy me`yorlardan chetga chiqsa yoki ulardan quyiyoq boʻlsa, bunday shaxs ma`naviyatsiz shaxs hisoblanadi.

Ta`lim dargohlarida oʻquvchi-talabalarga qanday tarbiya berilmoqda. Ular qaysi gʻoyalarga sodiqlik asosida bilim olmoqdalar bularning barchasi oʻqituvchi, murabbiylarning zimmasidadir.

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma`naviyat”, 2010. 62-bet.

Ta`lim-tarbiya tizimining kelajakdagi ahvoli o`qituvchilarga bog`liq. Chunki ta`lim-tarbiya sohasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi o`qituvchilar hisoblanadi. O`qituvchilar o`z kasbiga nisbatan mas`uliyatni his etsa, o`zini ustida ishlasa, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirsa, o`quv jarayonida o`quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashiga imkon bersa, talabalar bilimni baholashda ularning bilimni hisobga olib, adolatli baholansa ta`lim-tarbiya tizimi biz kutgan natijani beradi.

O`qituvchi o`quvchi-talabalarni bilim olishga bo`lgan qiziqishini uyg`ota bilishi lozim. Bilim olish milliy g`ururni shakllantirish yo`nalishlaridan biri. Chunki inson kamolotida bilim egallash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz o`zining “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarida aytganidek, “shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarimizning bugun qanday ta`lim va tarbiya olishiga bog`liq”<sup>1</sup>. Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo`ladi. Har qaysi insonning bilim darajasi jahon talablari darajasida, ya`ni fan-texnikaga, bozor iqtisodiyoti madaniyatiga javob beradigan holda bo`lishi kerak. O`sha komil inson, uning olgan bilimi hayot yo`llarida tayanch, yolg`iz damlarida yo`ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahbar, qayg`uli damlarida madadkor bo`ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e`tiqodli qiladi. Bilim olish insondan sabr-toqatli bo`lishni, o`zining ichki mayllariga qarshi turishni talab etadi. Ayrim insonlar o`zi qiziqqan asarni qo`liga oladi va uni o`qishga kirishadi, lekin asar hajm jihatdan katta ekanligi bois oxirigacha o`qishga sabri yetmaydi. Uning his-tuyg`ulari asarni o`qib chiqishni emas, balki qiziqarli kino ko`rishni istaydi.

Demak, bilim olish ham aslida iroda ekan. Chunki sabr-toqatli bo`lish, boshlagan ishni oxirigacha yetkazish, o`zining xohish-istaklariga qarshi turish bu – irodadir.

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma`naviyat”, 2010. 61-bet.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg`u bilig” asarida bilim haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

*Yana bir hikmat bor: Hazrati odam –  
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.*

Odamzod naslining ulug‘ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir.

*Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,  
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.*

Bunga asos bo‘ladigan boshqa so‘zlar bor. Ularni eshitib yo‘l-yuriq tuzsa bo‘ladi. Mana:

*Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,  
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.  
Uquvli uqaru bilimli bilar,  
Bilimli, uquvli shodlikka to‘lar<sup>1</sup>.*

Bilim o‘ylab ko‘rilsa misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-maqсадlariga erishadi.

Aql-idrok egalarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa elda aziz bo‘ladi, hurmat qozonadi. Butun ishlar uquv-idrok bilan amalga oshadi. Barcha murakkab ishlar bilim bilan hal etiladi<sup>2</sup>.

Insonning ma`naviy olamini boyituvchi asosiy omillardan yana biri adabiyot va san`atdir. Insonning ma`naviy hayotini adabiyot va san`atsiz tasav-vur etish qiyin. Aynan, adabiyot va san`at inson hayotini turli ranglar asosida bezaydi. O‘zi yaratgan qahramon orqali insonlarni ma`naviyati yuksak qilib tarbiyalaydi. Insonlarda nozik didni shakllantiradi. Hayotga qanday ko‘z bilan boqishni o‘rgatadi. Hayotning asl mazmun-mohiyatini ochib beruvchi soha ham aynan adabiyot va san`atdir.

---

<sup>1</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. - T., “Yulduzcha”, 1990. 11-bet.

<sup>2</sup> O‘sha asar, 12-bet.

Adabiyot va san`at insonni ichki dunyosini, xarakterini, qalbining nozik jihatlarini hamda insonning yuksakligi va tubanligini o`rganadi. Insonning badiiy, estetik, ma`naviy ehtiyojlarini qondiradi. O`zida ilgari surgan g`oyalar orqali komil insonni tarbiyalashga harakat qiladi.

Yaratilayotgan san`at asarlarining saviyasi yuqori bo`lsa, hozirgi zamon muammolariga bag`ishlangan bo`lsa insonlarning san`atga bo`lgan munosabati ham ijobiy mazmun kasb etadi. Aks holda inson bunday san`at asarlarini o`qigisi, ko`rgisi kelmaydi.

Ayniqsa hozirgi kunda G`arbdan kirib kelayotgan axloqiy buzuvchilikni targ`ib qiluvchi kinolar yoshlarning ma`naviyatiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Bu kinolarni ko`rish orqali ularda g`arbcha madaniyat shakllanmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek: “Keyingi paytda san`atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo`lmag`ur lavhalarni aks ettirish, bema`nilik va hayosizlikni, ba`zan esa, hatto axloqiy buzuvchilikni targ`ib qilishlar ko`payib qoldi”<sup>1</sup>. Bunday holatlarning oldini olish uchun yoshlarimizni qiziqtiradigan va ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg`ularini shakllantiradigan yangi zamonaviy adabiyot va san`at asarlarini yaratish lozim. Albatta, bunday adabiyot va san`at asarlari o`z-o`zidan yaralmaydi. Xalqimizga manzur bo`ladigan asarlarni yozuvchi, shoir, olimlar va shu soha mutaxassislari o`zining kuchli bilimi, tinmay izlanishlari natijasida yaratadi.

Inson ma`naviyatining yuksalishiga faqat adabiyot va san`at ta`sir etib qolmasdan ilm-fan ham katta ta`sir etadi. Ilm-fan tabiat, atrof-muhit to`g`risida insonga bilim beradi. Agarda ilm-fan rivojlanmaganda edi, insoniyat hozirgi taraqqiyot darajasiga erisha olmas edi. Eski tuzum davridagidek hayot kechirardi. Insoniyat hozirda mavjud bo`lgan jamiiki moddiy va ma`naviy boyliklarga ilm-fan orqali erishdi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan diniy va dunyoviy bilimlar ham ilm-fan orqali bizgacha yetib kelgan. Ilm-fanning rivojlanishi yangi bilimlarning paydo bo`lishiga va insonlarning olam

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma`naviyat”, 2010. 80-bet.

to'g'risidagi dunyoqarashini o'zgarishiga olib keldi. Ilm-fan rivojlangunga qadar inson ongida mifologik dunyoqarash ustun edi. Masalan, Qadimgi yunonlar hayoti va tevarak olam ko'zga ko'rinmas sirli kuchlarga tobe ekanligiga ishonishardi. Bu sirli kuchlarni ular xudolar deb atashgan. Yunonlar xudolarni xohish-irodasiga qarshi borganlarni u jazolaydi deb o'ylashgan. Shuning uchun ham yunonlar o'zlari yaratgan xudolardan qo'rqishar, ularga qurbonliklar qilar va ko'plab ibodatxonalarini ularga bag'ishlab barpo etar edilar. Ilm-fan aniq, isbotlangan bilimlarga tayanganligi sababli mifologik dunyoqarashni rad etadi. Ilm-fanning rivojlanishi dinning ham rivojlanishiga olib keladi. Ilm-fan dinning asl mazmun-mohiyatini ochib beradi. Aks holda insonlar diniy fundamentalizmning mohiyatini bilmasdan unga ko'r-ko'rona amal qiladilar. Diniy ekstremistlar esa dindan qurol sifatida foydalanib, aholi o'rtasida dinni noto'g'ri talqin qiladi. Ma'naviyati yuksak, ilm-fanni yaxshi bilgan inson beriladigan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanligini tezda anglab oladi. Irodasi mustahkam inson bunday yolg'on, aldamchi g'oyalarga uchmaydi. Aksincha ularga qarshi kurashadi.

Ilm-fan erishgan yutuqlar ma'naviyat mahsulidir. Tabiat sirlarini bilishga intilish, yangi-yangi bilimlarni egallash inson ma'naviyatini yuksaltirgan. Ilm-fanning o'zi ham insonlarning nazariy va amaliy faoliyati natijasida yuksalib borgan. Insoniyat o'zining ilmiy izlanishlari natijasida ilm-fanga yangi bilimlarni olib kirgan. Eski bilimlarni rivojlantirgan. Ixtirolar, kashfiyotlarni amalga oshirgan. Ilm-fan insonda o'z ustida ishlash va o'z kuchiga nisbatan ishonch tuyg'usini shakllantirgan.

Ilm-fanning rivojlanishi yangi zamonaviy texnologiyalarni yaratishga olib keldi. Yangi texnologiyalardan foydalanish insonning aqliy tafakkurini tubdan o'zgartirdi. Ishlab chiqarishda samarali natijalarga erishildi. A.Erkayev ta'kidlaganidek: "Inson yangi ilmiy-texnikaviy, texnologik yutuqlarga intilmasa, jamiyat turg'unlikka yuz tutadi, oxir-oqibatda halokatga uchraydi. Tez ko'paya-



yotgan insoniyat o'zini o'zi boqa olmay, panepidemiylar va tabiat kataklizmlaridan o'zini himoya qilolmay qoladi”<sup>1</sup>.

Irodaning o'zi ham ma'naviy yuksalish omillaridan biridir. Iroda insonning o'zidagi ma'lum bir kamchiliklarni yengib o'tishi, dangasalik illatlariga qarshi kurashi. Masalan, o'quvchi dars tayyorlagisi kelmaydi, kino ko'rgisi keladi. Bunda o'quvchining dars tayyorlashga bo'lgan dangasaligini yengib o'tishida iroda namoyon bo'ladi.

Iroda men shuni xohlayman, istayman degani emas, iroda – bu men shunday qilishim kerak, shart degani. Iroda men kitob o'qishni istayman degani emas, men kitob o'qishim shart, zarur, o'qimasam bo'lmaydi degani. Iroda insonning o'z oldidagi mas'uliyatni his qilishi, amaldorning o'z kasbiga sodiqligi, qancha qiyin bo'lmasin o'z burchini sadoqat bilan ado etishidir. Ana shunday holatlardagina ma'naviyat yuksaladi.

### **3.2. Irodaning inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishdagi ahamiyati**

Inson jamiyatdan ayri holda yashashi qiyin. Yashagan taqdirda ham uning ongi, tafakkuri, ma'naviyati shakllanmaydi. Inson jamiyatda yashar ekan o'zining manfaatlarini yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Bu manfaatlarni qaydarajada yuzaga chiqishi uning irodasiga bog'liq. Irodasi zaif inson har qanday vaziyatda ham o'z manfaatini o'ylab harakat qiladi. Jamiyat manfaatini inobatga olmaydi. O'zining manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi. Irodasi bo'sh odam jamiyatga nisbatan befarq bo'ladi. Jamiyat ishlarida qatnashmaydi. Passiv harakat qiladi. Bunday insonlarda faollik yetarli darajada bo'lmaydi. Irodasi bo'shligi sababli jamiyat yoki o'zi ishlayotgan tashkilot rahbari oldiga o'zining talabini qo'ya olmaydi.

Iroda inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltiruvchi asosiy vositadir. Shaxs xudbin, ochko'z, molparast, nafsga-hirsga botgan bo'lsa faqat o'zining manfaatini o'ylaydi. Agar u qiyinchiliklardan qo'rqmasdan, qiyinchi-

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Manaviyat va iroda // QarDU xabarlarini ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 74-bet.

liklarga chidab, sabr-toqad bilan harakat qilsa o'zini manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un holda olib boradi.

Inson va jamiyat manfaatlarini bir biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'rtadagi muvozanat buziladi. Jamiyat inson manfaatlarini inkor qilib, ko'pchilikni manfaatini ustun qo'ysa, shaxsiy manfaatlarni hisobga olmasa sotsializm davridagidek bo'ladi. Agar inson manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yilsa inson faqat o'zini o'ylaydigan, o'zi uchun harakat qiladigan xudbin shaxsga aylanib qoladi. Shuning uchun ham inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borish zarur.

Inson shunday faoliyat bilan shug'illanishi kerakki, bu faoliyatdan uning o'zi ham, jamiyat ham manfaatdor bo'lishi lozim. Masalan, insonning bilim olib, ma'lum bir kasbni egallash uchun o'qib o'rganishidan, bir tomondan, bilimi oshganidan o'zi ham manfaatdor, ikkinchi tomondan, yuksak bilimli, o'z kasbini yaxshi biladigan kadr yetishib chiqayotganidan jamiyat ham manfaatdor. Chunki jamiyatga aynan mana shunday bilimli insonlar kerak. Bunday vaziyatda inson va jamiyat manfaatlari bir biriga mos keladi.

Jamiyat insonlarning manfaatidan kelib chiqqan holda rivojlanishi kerak. Jamiyat insonlarning mustaqil yashashiga, adolatli mehnat sharoitida ishlashiga, o'zi qiziqqan kasb bilan shug'illanishiga sharoit yaratib berishi lozim. To'g'ri, jamiyat barcha insonlarga o'zi xohlagandek hayotni taqdim etolmasligi mumkin. Chunki inson hayotining qanday kechishi uning o'z xatti-harakatiga, mehnatsevarligiga bog'liq. Jamiyat faqat bunday insonlarning xatti-harakatini ijobiy yoki salbiy baholash orqali ularni qo'llab-quvvatlashi yoki e'tiroz bildirishi mumkin. Masalan, o'quvchi o'qishga kirish uchun o'qiydi, tayyorlanadi, lekin o'qishga kira olmaydi. Unda maqsad uchun kurashish, qiyinchiliklarni yengib o'tish, qat'iyat, o'z ustida ishlash yetishmasligi bois, o'qishga kira olmasligining sababini bilimi yetishmasligidan emas, jamiyatdagi adolatsizlikdan deb topadi. O'zining omadsizligiga jamiyatni aybdor qilib ko'rsatadi. Natijada irodasizlik qilib, alamzadaligidan jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug'illanadi. Noto'g'ri yo'llarga kirib ketadi.

Irodasi kuchli inson esa boshqacha yo‘l tutadi, omadsizligini jamiyatdan emas, o‘zidan izlaydi. O‘zidagi kamchiliklarni yo‘qotishga harakat qiladi. O‘z ustida ishlaydi, qiyinchiliklarga chidab, o‘zi xohlamasa ham kitob o‘qishga o‘zini o‘zi majburlaydi. O‘zining oldiga “men o‘qishga kirishim shart”, “kerak” degan talab qo‘yadi. Iroda orqali bilimni oshirganidan, vaziyatga nisbatan to‘g‘ri munosabat bildirganidan bunday insonlar kelajakda ko‘p manfaat topadi. Bu manfaatini jamiyat ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Inson jamiyatdan ko‘p narsalarni olgisi keladi, lekin jamiyat insonga kerakli barcha narsalarni berolmaydi. Chunki jamiyatda boshqa insonlar ham mavjud. Jamiyat faqat ma‘lum bir shaxsning manfaatini o‘ylab emas, balki shu jamiyatda yashovchi barcha shaxslarning manfaatini o‘ylagan holda ish tutishi lozim. Jamiyatda barcha narsa insonlar o‘rtasida teng taqsimlanishi kerak. Aks holda jamiyatga nisbatan norozilik paydo bo‘ladi. Masalan, jamiyat ma‘lum bir shaxsning bilim olishiga e‘tibor qaratib, unga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berib, boshqalarning bilim olishiga e‘tibor qaratmasa boshqalarning ongida jamiyatga nisbatan salbiy fikr paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyatning barcha sohasida adolat bo‘lishi lozim.

Mehnatga adolatli haq to‘lash inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishning bir ko‘rinishidir. Insonga o‘zining halol mehnatini sifati va miqdoriga qarab adolatli haq to‘lanishi kerak. Inson kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlab oilasini boqa olmasa, bola-chaqasiga kerakli narsalarni olib berolmasa uning jamiyatga nisbatan munosabati o‘zgaradi. Ishga ishlagisi kelmaydi, ishlasa ham oladigan maoshim qiladigan mehnatimga arzimaydi deb, ishlarini qo‘l uchida bajaradi. Uning uchun qiladigan ishining sifati emas, ishning bajarilganligi muhim. Agarda ishlovchi xodimning mehnatiga yarasha adolatli haq to‘lansa, ishiga mas‘uliyat bilan yondashadi, ishini vijdonan bajaradi, tanlagan kasbini sevib, o‘zi ishlayotgan tashkilot, korxonaga va unda ishlovchi jamoaga nisbatan hurmati oshadi, rahbarini buyruqlariga itoat etib aytilgan ishlarni o‘z vaqtida bajarishga odatlanadi. Jamiyatga foydasi tegadigan ish bilan mashg‘ul bo‘lganidan faxrlanib, yanada ko‘proq ishlashga

harakat qiladi. Eng muhimi oilasini boqishga va boshqalarga yordam ko'rsatishga imkoniyati bo'ladi.

Inson to'g'ridan-to'g'ri o'zining manfaatiga erisholmaydi. O'zining manfaatiga erishish uchun jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga amal qilishi kerak. Agar inson jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga amal qilmasdan manfaatini yuzaga chiqarmoqchi bo'lsa jamoatchilikning noroziligiga uchrashi yoki davlat tomonidan huquqiy jihatdan tegishli javobgarlikka tortilishi mumkin. Masalan, savdogarning o'z mahsulotini belgilangan narxdan yuqori narxda sotishi, tadbirkorning davlat solig'ini to'lamasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanishi ham jamoatchilikning, ham davlatning bunday insonlarga nisbatan chora qo'llashiga olib keladi.

Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishning **iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tarbiyaviy** asoslari mavjud.

**Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishning iqtisodiy asoslari.** Inson zoti borki dunyoda yaxshi yashashni, hech narsaga zoriqmasdan kun kechirishni istaydi. O'zini va oilasini oziq-ovqat, keyim-kechak va boshqa narsalar bilan ta'minlash uchun mehnat qiladi. Kasbiy faoliyat bilan, tadbirkorlik va biznes bilan shug'illanadi. Har bir kasb egasi halol ishlasa, faqat o'zining shaxsiy manfaatini o'ylamasdan jamiyat manfaatini ham o'ylab harakat qilsa inson va jamiyat manfaatlari muvozanatga keladi. Korxonaga egasi qo'l ostida ishlaydigan ishchilarning maoshini mehnatiga qarab adolatli taqsimlab, o'z vaqtida bersa, ishda tashabbus ko'rsatgan ishchilarni moddiy jihatdan rag'batlantirsa, ular ham korxonaga egasidan, ham jamiyatdan minnatdor bo'ladi. Agar korxonaga egasi o'zining manfaatini o'ylab ishchilarga maoshini o'z vaqtida bermasa, maoshining bir qismini ushlab qolsa, kam maosh olgan ishchilar o'zini va oilasini kerakli narsalar bilan ta'minlay olmay qoladi. Natijada oilada yetishmovchiliklar paydo bo'ladi. Bu yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun kasbini suiste'mol qiladi, ishining pora evaziga bajaradi. Qorni och, usti yupun odam faqat o'zining manfaatini o'ylaydi. Bunday insonlar hayotini yaxshilash uchun qanday ish bo'lsa barchasini bajaradi. Hattoki, jamiyat manfaatlariga mos

kelmaydigan ish bo'lsa ham. Natijada inson va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanat buziladi. Inson va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanat buzilmasligi uchun kuchli nazorat o'rnatilishi kerak. Iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish organlari halol ishlashi, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishi lozim.

Avvalo, tadbirkorlik va biznes to'g'ri yo'l bilan yuritilishi kerak. Tadbirkorlar va biznesmenlar davlatni va insonlarni aldamasdan halol va qonuniy ishlashi, ham o'ziga, ham jamiyatga foyda keltiradigan faoliyat bilan shug'illanishi lozim. Masalan, Inson tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanaman deb o'zining dala hovlisiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirib bozorga olib borib belgilangan narxda sotsa, ham o'zini pulga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, ham jamiyatni qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Agar tadbirkor faqat o'zining manfaatini o'ylasa, noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirsas, odamlarni ish bilan ta'minlayman deb aldab pulini olsa, boshqalarni ishlatib pulini bermasa, inson manfaati jamiyat manfaatiga mos kelmaydi.

Inson faqat o'zining ehtiyojini qondirish uchun yashamasligi kerak. Agar inson irodasiz bo'lsa, o'zini o'ylasa, hayotning mazmunini boylik ortirishda deb bilsa, boylik ortirish uchun boshqalarning haqiga xiyonat qilsa, poraxo'r, ochko'z, o'g'ri bo'lsa, o'zining shaxsiy manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi.

Insonlarning boylikka intilishi ham irodaga bog'liq. Irodasi zaif inson o'zining nafsiga, hirsiga qul bo'ladi. Chunki bunday insonlar o'zining illatlariga qarshi kurasholmaydi. Insonning nafsiga, hirsga bo'lgan moyilligi irodasidan ustun keladi. Uning irodasizligini ko'rsatib turadi.

Inson iroda orqali o'zining nafsini yengib o'tib, faqat o'zini o'ylamasdan boshqalar haqida ham o'ylasa, jamiyatning yuksalishi uchun o'zining hissasini qo'shsa, yaratuvchanlik faoliyati bilan shug'illansa, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini ochsa, jamiyat ham insonlarning to'q va bekamu-ko'st yashashi uchun yordam ko'rsatsa, tadbirkorlar va ishbiarmonlarning faoliyatini qo'llab-

quvvatlasa, ularga o'z ishini kengaytirish uchun imtiyozlar ajratsa, yordamga muhtoj oilalarga yordam ko'rsatsa, iqtisod faqat foyda olish uchun emas, inson manfaati uchun xizmat qilsagina inson va jamiyat manfaatlari muvozanatga keladi.

**Inson va jamiyat manfaatlari muvozanatga keltirishning siyosiy asoslari.** Davlat siyosati inson va jamiyat manfaatlari uyg'un holda olib borishga qaratilgan bo'lsa, inson manfaatlari davlat manfaatlari ustun deb qaralsa, davlat hokimiyati xalq manfaatlari ko'zlab siyosat yuritsa bunday jamiyat yuksaklikka qarab intiladi.

Jamiyatda doimo hokimiyat uchun ochiq va pinhona kurash kechadi. Demokratik davlatlarda bunday kurash qonun doirasida, oshkora olib borilsa, nodemokratik va totalitar davlatlarda, odatda, guruhbozlik, yashirin kurashlar, ig'vo, fitnalar orqali bo'ladi. Ular oxir oqibatda suiqasd, harbiy to'ntarishlarga olib kelishi mumkin<sup>1</sup>.

Inson mansabparast, ochko'z, shafqatsiz, adolatsiz, savodsiz, o'zini boshqalardan ustun qo'yadigan bo'lsa, jamiyat manfaatini o'ylamasdan, o'zining shaxsiy manfaatini o'ylab, hokimiyatga intilsa, hokimiyatni egallash uchun odamlardan vosita sifatida foydalansa, qurolli to'qnashuvlar uyushtirib, amalda hokimiyatni qonuniy boshqarayotgan hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni o'z qo'lga olsa, jamiyatning siyosiy manfaatini o'zining siyosiy manfaatiga bo'ysundirishga harakat qiladi. Natijada hokimiyatga intiluvchi shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati muvozanatga kelmaydi.

Agar inson adolatli, insonparvar, yuksak bilim sohibi bo'lsa, o'zining shaxsiy manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un holda olib borsa, xalq g'amini o'ylab yashaydigan, jamiyat kelajagini oldindan ko'ra biladigan, o'zini amalga oshirajak oliyanob ishlarini xalqqa ma'lum qilib qonuniy yo'l bilan erkin saylov orqali hokimiyat tepasiga kelsagina inson va jamiyat manfaatlari muvozanatga keladi.

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Siyosiy va huquqiy tarbiya // "Tafakkur" jurnali. 3/2015. - Toshkent. - 27-bet.

Inson va jamiyatning siyosiy manfaatlarini muvozanatga keltirishda jamiyat ham insonning shaxsiy manfaatlarini inobatga olgan holda davlat va jamiyat ishlarida bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etishiga qarshilik qilmasligi, saylovlarda qatnashishiga, referendumlar o'tkazishiga, davlat boshqaruviga oid o'zining taklif va mulohazalarini bildirishga qarshi turmasligi lozim.

Davlat insonning shaxsiy fikr va qarashlarini, manfaatlarini inobatga olmasdan faqat jamiyatning manfaatlariga ustuvor qaratsa, jamiyatda barcha uchun majburiy bo'lgan hukmron mafkura o'rnatsa, inson va jamiyat o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Natijada, inson jamiyatga, jamiyat insonga qarshi faoliyat bilan shug'illanadi. Masalan, sobiq tuzum davrida kommunistik mafkura davlat mafkurasida xalq ongiga singdirildi. Faqat jamiyat manfaatlariga ustuvorlik berilib, insonning shaxsiy manfaatlari inobatga olinmaganligi sababli bu mafkura parchalanib ketdi.

Inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borish uchun davlat demokratik siyosat yuritishi lozim. A. Erkayev ta'kidlaganidek: "Demokratiya fuqarolardan o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlash-tirishni talab etadi. Aks holda, odamlarning jamiyatga qo'yadigan talablari nobaqbul, haddan ziyod bo'lishi, xudbinlik kasb etishi yoki, aksincha, ular shaxsiy manfaatlarini yetarli darajada yuzaga chiqarolmay qolishi mumkin. Biz shunday ijtimoiy munosabatlar, tartibot va axloq, ma'naviy muhitga intilmog'imiz kerakki, unda shaxs va butun jamiyat manfaatlari, zarracha bo'lsa-da, zarar ko'rmasin..."

Demokratik jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va inson hayoti turli nosog'lom siyosiy bahslar, partiyaviy qarashlar-u amaldorlarning injiqligi, ma'muriy choratadbirlar qo'llanishi yoki qo'llanmasligiga bog'lanib qolmaydi. Parlament, hukumat inqirozi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Demokratiya sharoitida ham inson omilining salbiy ta'sirini to'liq istisno qilib bo'lmasa-da, amaldor xudbinligiyu o'z bilarmonligini jilovlash, tomonlar manfaatlarini muvozanatga keltirish mexanizmi mavjuddir"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Siyosiy va huquqiy tarbiya // "Tafakkur" jurnali. Toshkent. 3/2015. 29-bet.

Jamiyat taraqqiy etishi, insonlarning baxtli yashashi uchun inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borilishi kerak.

**Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishning huquqiy asoslari.** Inson o'zining manfaatlarini yuzaga chiqarishda jamiyatning qonun bilan belgilab qo'yilgan huquqiy manfaatlariga ziyon yetkazmasligi kerak. Inson davlat tomonidan belgilab qo'yilgan huquqlardan foydalanadi. Inson o'z manfaatini o'ylab boshqalarni aldamasligi, o'g'irlik qilib boylik ortirmasligi lozim. Mansabdor shaxs o'zining mansabidan foydalanib qonunni o'z manfaatiga moslashtirmasligi kerak. A.Erkayev aytganidek: "O'tmishda ko'pincha qonun mansabdorning xohish-istagi sifatida tushunilgan, lavozim va xizmat majburi-yati obektivlashtirilmagan, ya'ni kimningdir istagi va shaxsiy manfaatlariga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy zarurat, jamiyat ehtiyojlari ifodachisi sifatida qaralmagan. Chunki amaldorning xizmat vazifalari, burch va majburiyatlari nizom va yo'riqnomlarda aniq belgilab qo'yilmagan. Shu bois odamlar mansabdorning ko'nglini topish, uni o'zlari uchun foydali qaror qabul qilishga ko'ndirishga uringan"<sup>1</sup>. Lekin bugungi kunda amaldordan tortib oddiy shaxslargacha o'zining xizmat vazifasini qanday bajarishi qonun bilan belgilab qo'yilgan. Shunga qaramasdan o'zini shaxsiy manfaatini qonundan ustun qo'yib mansabini suistemol qilayotgan amaldorlar ham mavjud. Masalan, o'zining nafsini tiyolmagan amaldor ishga qabul qilishda ishga kiruvchining bilimiga qarab emas, beradigan puliga qarab oladi. Yoki mansabini pesh qilib davlat solig'ini to'lamaydi. Agarda uning irodasi kuchli bo'lganida edi, nafsini yengib ishga kelganlarni puliga qarab emas bilimiga qarab olgan bo'lardi. Davlat soliqlarini ham boshqalar kabi o'z vaqtida to'lagan bo'lardi.

Nodemokratik davlatlarda turli siyosiy partiya, iqtisodiy guruh, mansabdor shaxslar huquqni o'zining tor va g'arazli manfaatlariga moslab talqin qilishga urinadi. Qonundan ustun turishga, unga bo'ysunmaslikka intiluvchi kimsalar doimo bo'lgan. Biror mansabga chiqsa, poraxo'rlik va amalini suiste'mol qilish orqali boylik orttirish, yanada yuqori rutbaga erishish, boshqalar ustidan

---

<sup>1</sup> O'sha jurnal, 26-bet.



hukmronlik qilishga intilgan. Jamiyat rivojlanib davlat boshqaruvi murakkablashgani sayin mansabdor shaxslar safi kengayib borgan. Bu esa ular sodir etadigan jinoyatlar ko'payishiga olib kelgan. Aynan shu xildagi jinoyatlarni yashirish, o'zini oqlashga urinishlar huquqni, qonunlarni buzib talqin qilishga zamin yaratgan<sup>1</sup>. Bu urinishlar jamiyatning huquqiy manfaatlariga mos kelmagan. Ayrim hollarda jamiyatning o'zi bunday holatlarning yuz berishiga imkoniyat yaratib bergan. Bunday insonlarga qarshi kurash olib borishdan qo'rqan.

Qachon inson va jamiyatning huquqiy manfaatlari muvozanatga keladi. Qachonki, jamiyatda adolat ustuvor bo'lsa, jinoyat qilganlar qilmishiga yarasha jazolansa, insonlar o'zining haq-huquqini yaxshi bilsa va unga to'laqonli amal qilsa, jamiyatda insonlarning shaxsiy manfaatlarini inobatga olgan holda qonunlar yaratilsa, jamiyat insonning huquqiy manfaatlarini yuzaga chiqishini qo'llab-quvvatlasa.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan bormoqda. Fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi.

Prezidentimiz asosiy qonunimizda birinchi navbatda shaxs manfaatining davlat manfaatidan ustun etib belgilanganligi, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo'yilganini yana bir necha marta ta'kidlab o'tgan.

**Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishning tarbiyaviy asoslari.** Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirish uchun, eng avvalo, sog'lom ehtiyojli insonni tarbiyalash lozim. Insonning ehtiyoji nosog'lom bo'lsa, hayotda yeyish uchun yashasa, faqat boyish haqida o'ylasa, bilim olish haqida o'ylamasa, kitob o'qib bilim ortirishdan ko'ra faqat moddiy foyda keltiradigan ishlar bilan shug'illanib, ma'naviy foyda keltiradigan ishlar bilan shug'illanmasa, axloqiy buzuqlikni targ'ib qiluvchi video va audio

---

<sup>1</sup> Erkayev A. Siyosiy va huquqiy tarbiya // "Tafakkur" jurnali. - Toshkent. 3/2015. 27-bet.

fayllarini ko'rsa, boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilmasa, jamiyatda yaratilgan jamiki narsalar meniki bo'lishi kerak deb o'ylasa o'z manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi. Jamiyatni aynan mana shunga o'xshagan insonlar buzadi.

Inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltirishda nafaqat insonning, balki jamiyatning ham ehtiyoji sog'lom bo'lishi kerak. Jamiyat manfaati yo'lida ozchilik manfaati qurbon qilinsa, insonning shaxsiy manfaati inobatga olinmasa, erkin fikrlovchi insonlar qatag'on qilinsa jamiyat va inson bir biri bilan murosaga kelolmaydi.

Inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borish uchun insonlarni va Vatanini sevadigan, xalqi uchun jonini ham ayamaydigan irodali, vijdonli, ornomusli, o'z kuchiga ishonadigan, o'zining mustaqil fikriga ega insonlarni tarbiyalashimiz, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida biladigan erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishimiz lozim.

### **III bob bo'yicha xulosa**

1. Ma'naviyatni yuksaltiruvchi omillar iroda orqali o'zining ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ma'naviy yuksalish omillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: moddiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ta'lim-tarbiya, adabiyot va san'at, ilm-fan va boshqalar bilan bog'liq omillar.

2. Mustaqillikdan keyin mamlakatimizda insonlarning munosib turmush kechirishi va xalq farovonligini oshirish uchun ishlab chiqarishga, yangi texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor berildi. Bu esa insonlarni ishlab chiqarish bilan shug'illanishiga imkoniyat yaratdi. Bugungi kunda yurtimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, xohlagan kishi tadbirkorlik bilan shug'illanishi, fermer bo'lishi mumkin. Bu ishlar bilan shug'illanish uchun insonning o'zida qiziqish, qobiliyat va albatta, iroda kuchi bo'lsa kifoya.

3. Insonning ma'naviy hayotini adabiyot va san'atsiz tasavvur etish qiyin. Aynan, adabiyot va san'at inson hayotini turli ranglar asosida bezaydi. O'zi

yaratgan qahramon orqali insonlarni ma`naviyati yuksak qilib tarbiyalaydi. Insonlarda nozik didni shakllantiradi. Hayotga qanday ko`z bilan boqishni o`rgatadi. Hayotning asl mazmun-mohiyatini ochib beruvchi soha ham aynan adabiyot va san`atdir.

4. Iroda inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatga keltiruvchi asosiy vositadir. Shaxs xudbin, ochko`z, molparast, nafsga-hirsga botgan bo`lsa, faqat o`z manfaatini o`ylaydi. Agar u qiyinchiliklardan qo`rqmasdan, qiyinchiliklarga chidab, sabr-toqad bilan harakat qilsa o`z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg`un holda olib boradi. Inson va jamiyat manfaatlarini bir-biridan ustun qo`yib bo`lmaydi, aks holda o`rtadagi muvozanat buziladi. Jamiyat inson manfaatlarini inkor qilib, ko`pchilikning manfaatini ustun qo`ysa, shaxsiy manfaatlarni hisobga olmasa sotsializm davridagidek bo`ladi. Agar inson manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun qo`yilsa inson faqat o`zini o`ylaydigan, o`zi uchun harakat qiladigan xudbin shaxsga aylanib qoladi. Shuning uchun ham inson va jamiyat manfaatlarini uyg`un holda olib borish zarur.

5. Agar inson adolatli, insonparvar, yuksak bilim sohibi bo`lsa, o`z shaxsiy manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg`un holda olib borsa, xalq g`amini o`ylab yashaydigan, jamiyat kelajagini oldindan ko`ra biladigan, o`zini amalga oshirajak oliyjanob ishlarini xalqqa ma`lum qilib, qonuniy yo`l bilan erkin saylov orqali hokimiyat tepasiga kelsagina inson va jamiyat manfaatlari muvozanatga keladi.

## XULOSA

1. Yurtimizni yanada rivojlantirish, yoshlarimizni bilimli, o'z kuchiga ishonadigan mehnatsevar inson bo'lib yetishishi uchun ularda mustahkam irodani shakllantirish va tarbiyalash lozim. Irodasi mustahkam inson ertangi kuniga ishonch bilan boqadi, qiyinchiliklardan cho'chimasdan, faqat oldinga qarab harakat qiladi. Irodasi kuchli inson o'zini oldiga oliy maqsadlar qo'yadi va unga erishish uchun o'zidagi ichki hukmron tuyg'ularini yengib o'tadi. Inson o'ylagan ishlarini iroda orqali amalga oshiradi. Iroda nafaqat insonning maqsadiga erishishiga, balki jamiyatning ham yuksalishiga yordam beradi. Shunday ekan iroda tushunchasining mazmun-mohiyatini to'laroq anglab olish, inson va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi ta'sirini aniqlash uchun unga nisbatan beriladigan ta'riflarni atroflicha ko'rib chiqish hamda ilmiy jihatdan yoritib berish zarur

Iroda tushunchasiga falsafa va psixologiya fanlarida ham ta'rif berilgan, ammo bu ta'riflar biryoqlamalikdan xoli emas. Shuning uchun ham iroda tushunchasi ma'naviyat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan.

2. Inson o'zining ongli faoliyati bilan boshqa mavjudotlardan keskin farq qiladi. Inson uchun tabiat guzalliklaridan bahra olish va tabiatni o'zgartirish, o'zi uchun qulayliklar yaratish, o'zaro munosabatlarda ma'lum qoida va me'yorlarga rioya qilish xosdir. Bularning barchasi ongli ravishda iroda vositasida amalga oshiriladi. Ongsiz iroda vujudga kelmaydi. Iroda faqat insoniyat olamida mavjud. Hayvonot olamida iroda yo'q. Chunki hayvonlar o'z oldiga ongli maqsad qo'ya olmaydi. Ongning vujudga kelishi va rivojlanishida hamda irodaning mustahkam bo'lishida mehnatning roli beqiyosdir. Insoniyat o'zining ma'lum maqsadga qaratilgan ongli mehnati tufayligina tabiatdan ajralib chiqdi. Aynan mehnatda ong va iroda yaxlit tizim sifatida ishtirok etadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan jamiki moddiy va ma'naviy mahsulotlar ong va irodaning birgalikdagi mahsulidir. Iroda ongning shakllanishiga va ong irodaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda toblanadi. Shuning uchun ham

yoshlarimizning mehnat tarbiyasiga katta e`tibor qaratish zarur. Mehnat tarbiyasi faqat jismoniy mehnatga emas, shuningdek aqliy mehnatga ham to`g`ri munosabatni shakllantirishdan iborat. Mehnat bilan shug`illangan insonlarda or-nomus, o`z qadr-qimmatini anglash, o`zini tuta bilish, dadillik, qat`iylik, sabr-qanoat, chidam va toqat kabi irodaning muhim sifatleri namoyon bo`ladi.

3. Ma`naviyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning borliqqa, hayotga, tabiatga, jamiyatga va o`z-o`ziga bo`lgan munosabatini ifodalaydi. Insonning daraxt ekib bog` yaratishi va atrofini gulzorga aylantirishida, boshqalarga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatda bo`lishida ham uning ma`naviyati namoyon bo`ladi. Uning tanlagan maqsadi qay darajada yuksak bo`lsa, ma`naviyati ham shu mdarajada yuksak bo`lishi, aksincha tanlagan maqsadi jamiyat uchun xavfli, insoniyatga qarshi qaratilgan bo`lsa ma`naviyati ham shu darajada pastdir.

Ma`naviyat irodani tarbiyalaydi, irodaga qanday harakat qilish lozimligini ko`rsatadi. To`g`ri yo`lga undash vazifasini o`taydi. Ma`naviyat irodaga faqat to`g`ri maqsad qo`yish va uni amalga oshirish yo`llari, usullari va vositalaridan ma`qulini tanlashga yordam beradi. Ma`naviyat tufayli iroda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. O`z navbatida iroda ma`naviyatni yuzaga chiqaruvchi omildir. Irodaviy faoliyat orqali ma`naviyat ham shakllanib boradi. Irodasiz ma`naviyat shakllanmaydi.

4. Dastlab insonlar o`rtasidagi munosabatlar axloq vositasida tartibga solingan. Axloqning eng muhim vazifasi shundan iboratki, u insonlarni ma`lum bir faoliyat bilan shug`illanishga undaydi va cheklaydi. Buning natijasida inson o`zining qanday faoliyat bilan shug`illanishi lozimligini bilib oladi. Jamiyat qoralaydigan, e`tiroz uyg`otadigan ishlar bilan shug`illanish yaxshi natijalarga olib kelmasligini anglab, bunday ishlar bilan shug`illanmaslikka harakat qiladi. Irodasi kuchli inson jamiyatda o`rnatilgan axloqiy va huquqiy qoidalarga amal qilib yashaydi. Bunday yashash insondan kuchli bilim va irodani talab etadi.

Insonning boshqa mavjudotlardan ajralib turuvchi asosiy xususiyatlaridan biri yaratuvchanlik faoliyati bilan shug`illanishidir. Faqat insongina ma`lum bir narsalarni yaratish qobiliyatiga ega. Insonda yaratuvchanlik faoliyatining shakl-

lanishida mehnatning o'zni beqiyosdir. Ma'lumki, mehnat aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ongli va tartibli harakatlardan iborat bo'lib, insondan jismoniy va aqliy kuch sarf etishini talab qiladi. Mehnatdan natija olish uchun uni ma'lum tartibda oxirigacha yetkazish va mehnatga bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'ta bilish lozim. Mehnatning mana shu xususiyati odamning irodasini mustahkamlaydi, unda qunt bilan ishlay bilish qobiliyatini shakllantiradi.

5. Inson jamiyatda yashar ekan o'zining manfaatlarini yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Bu manfaatlarni qaydarajada yuzaga chiqishi uning irodasiga bog'liq. Irodasi zaif inson har qanday vaziyatda ham o'z manfaatini o'ylab harakat qiladi. Jamiyat manfaatini inobatga olmaydi. O'zining manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi. Irodasi kuchli inson esa o'zini manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un holda olib boradi.

Inson va jamiyat manfaatlarini bir biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'rtadagi muvozanat buziladi. Jamiyat inson manfaatlarini inkor qilib, ko'pchilikni manfaatini ustun qo'ysa, shaxsiy manfaatlarni hisobga olmasa sotsializm davridagidek bo'ladi. Agar inson manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yilsa inson faqat o'zini o'ylaydigan, o'zi uchun harakat qiladigan xudbin shaxsga aylanib qoladi. Shuning uchun ham inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borish zarur.

### **Taklif va tavsiyalar**

1. O'zbek tilining izohli lug'atida va boshqa o'zbek tilida chop etilayotgan lug'atlarda irodaga nisbatan qisqa, bir yoqlama ta'rif berilgan. Shuning uchun ham bu lug'atlardagi irodaga berilgan izohlarni kengaytirish va uning mazmunini har tomonlama ochib berishni tavsiya qilamiz.

2. Iroda to'g'risidagi ma'lumotlarni asosan falsafa va psixologiya fanlarida uchratishimiz mumkin. Shuning uchun ham iroda to'g'risidagi ma'lumotlar juda kam. Psixologiya fanlarida fan mualliflari tomonidan yozilgan darsliklarda iroda to'g'risidagi mavzular bir-birini takrorlab kelgan. Takrorlanishlarni oldini olish uchun fan mualliflari yozilgan darsliklarini o'zaro ko'rib chiqib, maqbul variantni tanlasalar yaxshi bo'lar edi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
2. “Ta`lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: Adolat , 1998. - № 17. -B. 3-16.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: Adolat, 1998. - № 18. -B. 3-36.

### II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. 1-jild. - T.: O‘zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2–jild. - T.: O‘zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash–davr talabi, 5–jild. - T.: O‘zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O‘zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. - T.: O‘zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O‘zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O‘zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. - T.: O‘zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. - T.: O‘zbekiston, 2001.
12. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2010.

13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O‘zbekiston, 2012.

14. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - T.: O‘zbekiston, 2015.

### **III. Asosiy adabiyotlar**

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - T.: Yulduzcha, 1990.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri. - T.: 2012.

3. Erkayev A. Ma‘naviyat – millat nishoni. - T.: Ma‘naviyat nashriyoti, 1999.

4. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma‘naviyat. - T.: Ma‘naviyat. 2002.

5. Erkayev A. Ma‘naviyat va taraqqiyot. - T.: Ma‘naviyat, 2009.

6. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - T.: Ma‘naviyat, 2011.

7. Виндельбанд В. О свободе воли. Минск – Москва. “Харвест” – “АСТ”, 2000, стр. 8.

8. Gunnar Skirbekk Nils Gile. Falsafa tarixi. - T.: Sharq, 2002.

9. Nazarov Q. G‘arb falsafasi. - T.: Sharq, 2004.

10. Tulenov J. va G‘afurova Z. Falsafa. - T.: O‘qituvchi, 1997.

11. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasi. - T.: O‘zbekiston, 2000.

12. Quronboyev Q. va Qo‘chqorov V. Milliy g‘oya va ma‘naviy hayot. - T.: Ma‘naviyat, 2014.

13. To‘rayev Sh. Milliy g‘oya va ma‘naviyat. Risola. - T.: Ma‘naviyat, 2015.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.

2. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. - Toshkent: 1967.

3. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 1994.

4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-kitob. - Toshkent: 2002.

5. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Birinchi nashr. - T.: O‘qituvchi, 2012.

6. Boymurodov.N. Amaliy psixologiya. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.



7. Gamezo M.V. Psixologoya kursi. - T.: O‘qituvchi, 1972.
8. Nazarov Q., Quronov M. va boshqalar. Milliy istiqlol g‘oyasi. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
9. Nosirxo‘jayev S., Lafasov M., A‘zamxo‘jaeva S. Ma’naviyat asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashri. - T.: Turon-iqbol, 2007.

### **Ilmiy, ommabop va publisistik lug‘atlar**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - T.: Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 2-jild, 225-b.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 530-bet.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug‘at). - T.: Yangi asr avlodi, 2002.
4. Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari va atamaları. - T.: Akademiya, 2007.
5. Философский энциклопедический словарь. - М., 1983. - С.783.

## **IV. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar**

### **Ilmiy jurnallardagi maqolalar**

1. Erkayev A. Ma`naviyat va iroda // QarDU xabarları ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Qarshi. 3/2015. 67-bet.
2. Erkayev A. Siyosiy va huquqiy tarbiya // “Tafakkur” jurnali. Toshkent. 3/2015. 27-29-betlar.
3. Abdulla Sher. Erkinlik, ixtiyor va iroda // “Tafakkur” jurnali. Toshkent. 2/2012. 27-bet.
4. Ergashev O. Shaxs, jamiyat va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga yangicha yondashuv yo`llari // Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. Qarshi Davlat

- universitetining 10 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ilmiy konferensiya materillari. – Qarshi: Nasaf, 2002. - 17-bet;
5. Rajabov M. Istiqlol ma`naviyati va shaxs ma`uliyati // Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. Qarshi Davlat universitetining 10 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ilmiy konferensiya materillari. – Qarshi: Nasaf, 2002. - 200-bet.
6. Ochilov M. Ta`lim-tarbiya maqsadlarini oydinlashtirish // Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. Qarshi Davlat universitetining 10 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ilmiy konferensiya materillari. – Qarshi: Nasaf, 2002. - 106-bet.
7. Boymurodov N. Kasb tanlash – shaxs yetukligining muhim sharti // Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. Qarshi Davlat universitetining 10 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ilmiy konferensiya materillari. – Qarshi: Nasaf, 2002. - 129-bet.
8. Ergashev I. Shaxs ma`naviy qiyofasi va erkinlik // Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. Qarshi Davlat universitetining 10 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ilmiy konferensiya materillari. – Qarshi: Nasaf, 2002. - 172-bet.

## **V. Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.milliy/ma'naviyat.uz](http://www.milliy/ma'naviyat.uz)
3. [www.filosofia.ru](http://www.filosofia.ru)
4. [www.philosophy.nsc.ru](http://www.philosophy.nsc.ru)
5. <http://vlibrary.freenet.uz>
6. [namdumanaviyathhttp://fikr.uz/](http://namdumanaviyathhttp://fikr.uz/)
7. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
8. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
9. [www.history.ru](http://www.history.ru)
10. [www.gow.uz](http://www.gow.uz)